



2024-YIL UCHUN DAVLAT BUDJETINING ASOSIY YO‘NALISHLARI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil uchun davlat budjetining asosiy yo‘nalishlari hamda tarmoq va hududlarda amalga oshiriladigan vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Davlat budjeti daromadlarini ko‘paytirish, xarajatlarini optimallashtirish bo‘yicha har bir soha, tarmoq va hududlar kesimida mavjud zaxira va imkoniyatlar atroflicha tahlil qilindi.

Avvalo, yirik sanoat tarmoqlarida xarajatni qisqartirish orqali tannarxni kamaytirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilandi. Masalan, joriy yilning birgina to‘rtinchi choragida 349 ta yirik sanoat korxonasida 2,1 trillion so‘m xarajatlarni kamaytirish mumkinligi hisob-kitob qilingan. Bu ishlarni tizimli davom ettirish uchun hukumatga kelgusi yilda yirik tarmoqlarda tannarxni 15-20 foiz kamaytirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish topshirildi.

Hududlarning daromad bazasini kengaytirish masalasiga to‘xtalib o‘tiladi. Jumladan, past quvvatda ishlayotgan korxonalarga ko‘mak berib, ularni to‘liq quvvatga chiqarish choralari belgilandi. Tadbirkorlikni rivojlantirib, soliq bazasini kengaytirish, afzalliklar berish orqali “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish muhimligi aytiladi.

Qishloq xo‘jaligida “katta sakrash”ga faqat ilm orqali erishish mumkinligi ta’kidlandi. Bu borada yer sifati, nav va agrotehnologiyaga zamonaviy ilmiy yutuqlarni keng tatbiq etish orqali bir gektarda paxta hosildorligini 50 sentnerga, g‘allada 100 sentnerga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Mintaqamizda suv muammosi kun sayin dolzarb bo‘lib bormoqda. So‘nggi ikki yilda suv xo‘jaligiga budjetdan 22 trillion so‘m, jumladan, suv tejovchi texnologiyalarga qariyb 1 trillion so‘m subsidiya ajratilgan.

Shu bois, kelgusi yillarda sug‘orish kanallarini betonlash, suv tejovchi texnologiyalar o‘rnatish ishlariga ajratiladigan mablag‘ ko‘paytirib boriladi. Jumladan, kelgusi yilda markazlashgan investitsiya hisobidan 1,7 trillion so‘mlik va xalqaro moliya tashkilotlaridan 300 million dollarlik suv infratuzilmasi loyihalari amalga oshiriladi. Davlatimiz rahbari bu masalaga kengroq to‘xtalib, sug‘orish kanallarini betonlash bo‘yicha uch yillik dastur qabul qilinishini ta’kidladi.

Yaqinda qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ijtimoiy sohalarini rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shu bois, 2024-yil uchun davlat budjeti loyihasida bu sohalariga katta e’tibor qaratilgan.

Xususan, kelgusi yil inson kapitalini rivojlantirish uchun 102,5 trillion so‘m yo‘naltirish mo‘ljalanmoqda. Bu joriy yilgiga nisbatan 15 foiz ko‘p.

Masalan, dastlabki loyihada 317 ta maktab qurilishi va rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilgan edi. Prezidentimiz bu masalaning muhimligini va joylardagi talabni inobatga olib, yana 150 ta maktab qurilishiga mablag‘ ajratishni taklif qildi.

Maktabgacha ta’lim, professional va oliy ta’lim tizimi uchun nazarda tutilgan mablag‘larni ham ko‘paytirish bo‘yicha fikr bildirildi.

Shu bilan birga, ushbu mablag‘lardan oqilona foydalanish, ajratilayotgan mablag‘larning natijadorligini oshirish zarurligiga alohida e’tibor qaratildi.

Kelgusi yildan “Mahalla budjeti” tizimi to‘liq joriy qilinadi.

Bu — har bir mahallaning 100 million so‘mgacha mablag‘i bo‘ladi, degani.

Davlatimiz rahbari bu mablag‘larni mahallada ish o‘rni yaratadigan, aholining og‘irini yengil qiladigan loyihalarga yo‘naltirish zarurligini ta’kidladi. Ushbu yangi tizim bo‘yicha mahalla raislarini o‘qitish, mablag‘larning hisobini yuritish va nazorat qilish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi.

Shu bilan birga, budjet intizomini kuchaytirish bo‘yicha qonunchilikka takliflar kiritish zarurligi aytiladi. Bu borada budjet mablag‘lari hisobidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzishga yo‘l qo‘ymaslik, ochiq-oshkora tanlov va tenderlar o‘tkazish amaliyotini kengaytirish qat’iy ko‘rsatib o‘tiladi.

Tarmoq, soha va hududlarga kelgusi yil 32 milliard dollar investitsiya jalb etish, eksporti 19 milliard dollarga yetkazish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Yig‘ilishda bildirilgan fikrlar asosida 2024-yil uchun budjet loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritiladi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid bo‘ldi. Davlatimiz rahbari Qashqadaryo viloyati misolida yil yakunigacha bo‘lgan ishlarni maksimal darajada bajarish, kelgusi rejalarni belgilashda aholi talabi va muammodan kelib chiqish yo‘lini ko‘rsatib berdi. Bunda hokimliklar bilan vazirliklar tengmateng mas’ul ekani, o‘zaro muvofiq ishlab, soha va joylardagi masalalarni hal etish zarurligi ta’kidlandi.

O‘ZA



TARAQQIYOT YO‘LI

YOSHLAR HUQUQLARI:

IMKONIYATLAR VA HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI

(POYTAXTIMIZ SHU MAVZUDAGI XALQARO FORUMGA MEZBONLIK QILADI)



23-oktabr kuni Toshkent shahrida “Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari” mavzusida xalqaro forum ko‘lib o‘tadi. Onlayn va oflayn tarzda o‘tkaziladigan anjuman Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 75 yilligi va Inson huquqlari bo‘yicha Vena butunjahon konferensiyasining 30 yilligiga bag‘ishlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal SAIDOV bilan ushbu xalqaro forumning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida suhbatlashdik.

XAVFSIZLIK KENGASHLARI KOTIBLARI UCHRASHUVI

Toshkentdagi Xalqaro kongress markazida 20-oktabr kuni O‘zbekiston raisligida Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo davlatlar Xavfsizlik kengashlari kotiblarining ikkinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Bugungi kunda vakolatli idoralarning xavfsizlikni ta’minlash borasidagi harakatlari, mamlakatlarni barqaror taraqqiy ettirish yo‘llarini izlash bo‘yicha hamkorlikdagi ishlari har doimgidan ham muhim jarayon sanaladi. Shu jihatdan ham bu yig‘ilishni Turkiy davlatlar tashkiloti kun tartibidagi o‘ta muhim voqealardan biri deiyish o‘rinli.

Tadbirda Ozarbayjon Respublikasi Xavfsizlik kengashining kotibi Ramil Usubov, Qozog‘iston Respublikasi Xavfsizlik kengashining kotibi Gizat Nurdauletov, Qirg‘iz Respublikasi Xavfsizlik kengashining kotibi Marat Imankulov, Turkiya Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Milliy xavfsizlik kengashining bosh kotibi Seyfullah Xaji Muftu o‘g‘li, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi Viktor

Mahmudov, shuningdek, Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Qubanihchek Omuraliyev ishtirok etdi.

Anjumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashqi siyosat masalalari bo‘yicha maxsus vakili Abdulaziz Komilov davlatimiz rahbarining yig‘ilish ishtirokchilariga murojaatini ekani o‘qib eshittirdi.

Murojaatda Turkiy davlatlar tashkilotining jadal o‘rib borayotgan salohiyati va obro‘-e’tibori — bu ularning do‘stligi hamda birdamligi ekani alohida qayd etilgan.

Samarqandda bo‘lib o‘tgan tarixiy sammit yakunlari Tashkilot rivojida yangi davrni boshlab berdi. Qator muhim hujjatlar, jumladan, savdo va bojxona tartib-taomillari soddalashtirish hamda Investitsiya fondini tashkil etish to‘g‘risidagi bitimlar qabul qilindi.

Davomi 2-betda



21-OKTABR — O‘ZBEK TILI BAYRAMI KUNI

“YURTIMIZNING MEVALARI SHIRIN, MEVALARIDAN HAM shevalari shirin...”

yoxud qo‘l barmoqlari qayerda qanday ataladi?

“O‘ylasam, izlanishlarimiz kabi g‘o‘filligimiz-da poyonsiz ekan. So‘zni eshitamiz, so‘zlashni qotiramiz, lekin so‘z mag‘zini chaqish xayolimizga kelmaydi. Nega shunday deymiz, deya o‘zimizga savol bermaymiz. Bu sinoat to‘la olam bamisoli olisdagi yulduzlardek noayon qolaveradi”, deya bejiz ta’kidlamagan O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov.



Ona tilimiz sinoatlari, mo‘jizalari va bugungi kundagi ilmiy tadqiqot ishlari haqida filologiya fanlari doktori, professor Yorqin ODILOV bilan suhbatlashar ekanmiz, bir oz befarqligimiz va e’tiborsizligimiz bois, noayonlashib qolayotgan ba’zi haqiqatlar qoshida iztirobga tushdik. Yuzaga chiqayotgan, kashfi etilayotgan xazinamiz javohirlari quvonchidan esa ko‘nglimiz ravshan tordidi.

Davomi 6-betda



MUNOSABAT

“MAKON VA YO‘L” VAQT HAM, MASOFA HAM QISQARADI

Markaziy Osiyo qadimdan Buyuk ipak yo‘lining qoq markazida joylashgan, xalqaro bozorlarni birlashtirib turuvchi hudud bo‘lgan. Mintaqa Sharq va G‘arb, Shimol va Janub o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tash bilan birga, turli davlatlarning o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar o‘rnatishiga yordam bergan. Bugun ham transport-tranzit salohiyati sabab mintaqaga jahon siyosiy xaritasining muhim strategik qismi sifatida qaralmoqda. Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklashga bo‘lgan faol harakatlar esa nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon hamjamiyati rivoji uchun xizmat qiladi.



Davomi 3-betda



OZOD YURTNING OBOD MANZARALARI

“YANGIBOG”da yangi hayot boshlandi

Baxmal tumanidagi “Yangibog” mahalla fuqarolar yig‘ini “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” dasturi bo‘yicha Jizzax viloyatidagi ilk mezbon sifatida tarixda qoldi. Qisqa fursat ichida bu yerda katta hajmdagi bunyodkorlik va obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Endilikda mahallaning nainki ko‘cha va xonadonlarida, balki har bir keksa-yu yoshning ong-u tafakkurida ham tub o‘zgarishlar, yangilanish va yasharishlar ufurib turibdi.

Davomi 2-betda



YASHIL ENERGETIKA

ELEKTROTEXNIKA SANOATIDAGI ENG KATTA BOZOR



XITOIY BILAN YANA BIR YIRIK KELISHUV IMZOLANDI

Dunyo avtomobil bozorida elektromobilga talab kun sayin ortib bormoqda. “Yashil” energetikaga o‘tish orqali sayyoramiz ekologik xavfsizligini ta’minlashni ko‘zlagan jahon hamjamiyati elektr energiyasida harakatlanadigan transport vositalaridan tobora ko‘proq foydalanmoqda. Ushbu sanoat bir qancha davlatlarda rivojlanayotganiga qaramay, asosiy yetakchilik Xitoyda qolyapti. Ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tgan yili mazkur mamlakat 3 milliondan ortiq elektromobil sotgan. Bu uni dunyodagi eng katta elektromobil bozoriga aylantirdi.

Davomi 3-betda

DO‘STLIK ALOQALARI

ASRLAR SINOVIDA TOBLANGAN QARDOSHLIK

Qiyas MOLDOQASIMOV, Qirg‘iz Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, “Meros” fondi raisi, tarix fanlari nomzodi

Tarixchi olim sifatidagi taqdirimga qirg‘iz va o‘zbek xalqlari o‘rtasidagi tarixiy munosabatlarni o‘rganish cheki tushgan. Bu mavzuni 35 yil muqaddam taniqli o‘zbek olimi, tarix fanlari doktori, professor Hamid Ziyoyev menga taklif qilgandi. Ilmiy rahbarim qirg‘iz-o‘zbek do‘stligi, munosabatlari haqida uzoq hikoya qilib, meni Toshkentdagi O‘zbekiston Markaziy davlat arxiviga olib keldi va bu arxivda ikki xalq o‘rtasidagi munosabatlarga oid ko‘plab ma’lumotlar bilan tanishtirdi.

Ustozimning qirg‘izlarga mehri bo‘lakcha edi. Buning sabablaridan biri, Ikkinchi jahon urushida og‘ir yaralangan professor Hamid Ziyoyevni Qoraqirg‘iz avtonom viloyati revkomi boshlig‘i Imanali Aydarbekovning qizi Raza Aydarbekova davolab, o‘limdan saqlab qolgan.

Ustozimning maslahati bilan Toshkent shahrida uch yilga yaqin arxivda ishladim, ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy aloqalarga oid ko‘plab ma‘lumotlar to‘pladim va 1994-yilda “XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi qirg‘iz va o‘zbek xalqlarining tarixiy aloqalari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildim. Shunday qilib, ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy rishtalar va munosabatlarga juda boy ekaniga to‘liq amin bo‘ldim.

Qirg‘iz va o‘zbek xalqlari asrlar davomida bir mintaqada yashab, bir daryodan suv ichib, bir tilda gaplashib, dini, qalbi, bozori, mozori bir bo‘lib, tashqi dushmanlardan birga himoyalangan, ozodlik uchun kurashgan. Qiyin kunda bir-birini tashlab qo‘ymagan, dardu quvonchlarini o‘zaro baham ko‘rgan, quda-anda bo‘lib ketgan.

Dunyoni larzaga solgan sarkarda Amir Temur, so‘ngra Mirzo Bobur, Jung‘or xonligi davrida qirg‘iz va o‘zbek xalqlari o‘rtasidagi munosabatlar rivojlanib, XIII asr boshlarida birgalikda Qo‘qon xonligiga asos solib, xonlikning 167-yillik tarixi mobaynida bir davlatda yashagan. Ular mamlakatni tashqi dushmanlardan himoya qilishda ham

bir tanu bir jon bo‘lgani tarixdan ma‘lum. 1865-yilda qirg‘iz elining atqoli sarkardasi Alimqul Toshkentni Rossiya imperiyasi bosqinidan himoya qilishda qahramonlik ko‘rsatdi, shahid bo‘ldi, Toshkentda dafn etildi. Yana bir o‘g‘lon Po‘latxonning jasadi ham Marg‘ilonda qo‘nim topdi. Butun qirg‘iz va o‘zbek xalqi ularni qo‘llab-quvvatladi, ortidan ergashdi, ozodlik uchun kurashda birga bo‘ldi.

Ular Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoga bosqini va undan keyingi mustamlakachilik azobini ham ko‘rdi. Ayniqsa, 1898 va 1916-yillardagi ozodlik kurashida bir safda bo‘lganlarini tarix esdan chiqarmaydi. 1898-yilgi qo‘zg‘olon bostirilgach, 10 dan ortiq kishi osildi, 500 dan ziyod kishi Sibirga surgun qilindi, oddiy xalq juda katta badal to‘ladi. Qo‘qon xonligi va undan keyingi rus mustamlakachiligi davrida qirg‘iz va o‘zbek yonma-yon turib, Farg‘ona vodiysidagi kanallarni qazish va sug‘orish inshootlarini qurishda ishtirok etdi.

Ular tabiiy ofatlarda — bahorgi toshqinlar, zilzilalar paytida ham, chorva mollari nobud bo‘lib, ko‘chmanchilar ocharchilikka yuz tutganda ham hamisha bir-birlariga yordamga kelgan. Masalan, 1902-yil 3-dekabr kuni Andijonda kuchli zilzila sodir bo‘lib, shahar vayronagarchilikka yuz tutadi. Bu yer silkinishida Andijon shahrida 1016 kishi, atrofdagi 158 qishloqda 3342 kishi, Marg‘ilonda 285 kishi halok bo‘lgan. O‘sha



paytdagi statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 30 ming uy yaroqsiz ahvolga keladi. “Turkستانskie vedomosti” gazetasi shunday ofat paytida qo‘shni qirg‘iz xalqi birinchilar qatorida yordam ko‘rsatgani, zilzilaning ertasi



kuni jabrlangan, uy-joyi va oziq-ovqatidan ayrilgan aholiga 40 ming dona non yetkazib berilgani haqida yozgan edi.

Gazeta, shuningdek, yaqin atrofdagi qishloqlar aholisining tezda ko‘plab bo‘z uylarni yig‘ib, jabrlanganlarga yetkazgani haqida ham xabar beradi. Arxiv hujjatlari Andijondan uzoqda joylashgan Pishpek va Prijevalsk qishloqlarida yashovchi qirg‘izlar tezda yordam qo‘lini cho‘zganini ko‘rsatadi. 1910-yil 22-dekabrda qirg‘izlar istiqomat qilgan Pishpek vodiysining Cho‘nkemin hududida ham xuddi shunday kuchli zilzila sodir bo‘lgani, qirg‘izlar katta talafot ko‘rganida o‘zbek xalqi birinchi tibbiy yordam ko‘rsatganini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Bu ma‘lumotlar ikki xalq o‘rtasidagi qalin va do‘stona munosabatlarning bir ko‘rinishi, xolos.

Ikki qo‘shni xalq o‘rtasidagi qarindoshlik, ahillik shoir va hofizlarning yaqin munosabatidan ham ko‘rinadi. Shu paytgacha atqoli qirg‘iz oqini To‘qto‘g‘ul Sotilganov bilan o‘zbek xalqining atqoli farzandi Mulla To‘ychi Toshmuhammedov

UZOD YURTNING OBOD MANZARALARI

“YANGIBOG”DA yangi hayot boshlandi

Bugungi qishloqlarimiz bundan 25-30 yil oldingi qishloqlar emas. Dastur asosida mahallada aholini ichimlik suv bilan ta’minlash darajasini yaxshilash maqsadida 1 dona ichimlik suv inshooti yangidan qurilib, 3 tasi qayta ta’mirlandi. 14,5 kilometr ariqlar tozalandi. Aholiga elektr yetkazib berish yaxshilandi. Shu maqsadda 2 ta yangi transformator qo‘yilib, 1 ta transformator qayta ta’mirlab berildi. 412 ta temir-beton ustunlar o‘rnatildi.

Boshlanishi 1-betda

“Ko‘chalar, oydin ko‘chalar”

Mahalla sokin tuyulsa-da, aslida, bu yerda hayot qaynaydi. Ertal tongdanoq qishloq odamlarining biri boqqa, biri dalaga otlangan bo‘ladi.

Darvozaxonadagi “Cobalt”ini o‘t oldirib, oynalarini artayotgan eski tanishimizdan azonlab qayoqqa oshiqayotganini so‘radim.

— Adirga piyoz ekkandim, — deydi u. — Endi yig‘ishtirib olamiz. Har kuni bir borib xabar olib kelmasam, ko‘nglim joyiga tushmaydi.

— U yoqlarning yo‘llarini yaxshi bilaman, tizza bo‘yi tuproq, o‘ydin-chuqur. Yangi mashinada qiyналиb qolmayisizmi? — deyman ajablanib.

— Bu yerlarga kelmaganingizga ancha bo‘libdi, — deydi u kulib, — Hozir siz ko‘rgan yo‘llar kengaytirilib, asfalt qilindi. G‘ir etib boraman, g‘ir etib kelaman.

Tanishim haq ekan. Mahallada shu yilning 26-iyulidan 27-avgustiga qadar, ya‘ni bir oy muddat ichida yo‘llarga ham alohida e‘tibor qaratilib, belgilangan dastur asosida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi. Mavjud 34 ta ko‘cha ro‘yxatdan o‘tkazilib, ta‘mirlandi. Jumladan, ichki yo‘llarning 22,8 kilometriga shag‘al to‘kildi, 7,7 kilometriga asfalt, 1,2 kilometr ichki yo‘llar va 700 metr piyodalar yo‘lakchasiga beton yotqizildi.

“Yangibog” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Nuriddin Mamatqulov, hokim yordamchisi Nuriddin Eshqulov hamrohligida ko‘chalarni aylanarkanmiz, mahalla infratuzilmasi o‘zgarib, tanib bo‘lmias qiyofaga kirganining guvohi bo‘ldik. Shu orada radio to‘lqinlarida taniqli san‘atkor Muhabbat Shamayeva bir paytlar ijro etgan, hozirda ham ko‘pchilik sevim tinglaydigan “Ko‘chalar, oydin ko‘chalar” qo‘shig‘i yangradi. Uni eshitir ekanmiz, nazarimizda, bu qo‘shiq ushbu mahalla yo‘llariga ham bag‘ishlab kuylanganday tuyuldi.

Qizg‘aldoqlar endi hovlida o‘sadi

Keng asfalt yo‘lda Tongotar mahallasi-dan chiqib, “Yangibog”ga o‘tar ekanmiz, yorqin ranglardagi aholi uylariga ko‘zimiz tushdi. Ular sifati ta‘mirdan chiqarilib, har qanday kishining e‘tiborini tortadi. Chettilar gulzor rayon yo‘llar, yangi barpo etilgan mahalla idorasi, qayta ta‘mirlangan maktab, zamonaviy savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, oqlanib, turli rang berilgan xonadon uylari — barcha-barchasi bugun qishloqlar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shmoqda. Qishloqlarimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ulkan bunyodkorlik ishlari xalqimizning hech kimdan kam bo‘lmay yashashi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish uchun, ezuu orzu-umidlari ro‘yobga chiqarmoqda.

— Bolaligimizda hozirgi pishiq g‘ishtdan tiklangan, tomiga qizil tunuka yopilgan

batlari haqidagi hikoyalar bir maqolaga sig‘maydi.

Ikki xalq o‘rtasidagi aloqalar sobiq ittifoq davrida ham mustahkam bo‘lgan. Abdqodir O‘rozbekov va Yo‘ldosh Oxunboboyev, Usmon Yusupov va I‘shoq Razzoqov o‘rtasidagi iliq munosabatlar haqida ko‘p gapirish mumkin. Qirg‘iziston xalq yetakchisi, Markaziy Qo‘mitaning 1-kotibi I‘shoq Razzoqov O‘zbekistonda rahbar sifatida tarbiyalangan, so‘ngra Usmon Yusupov taklifi bilan Qirg‘izistonga yuborilgan. Shuni unutmashlik kerakki, 1985-yilda qayta qurish davrida Moskva nafaqat O‘zbekiston rahbariyati, balki o‘zbek xalqiga ham tuhmat toshlarini yog‘dirganida qirg‘izning buyuk farzandi, jahon yozuvchisi Chingiz Aytmatov katta maqolasi orqali qardosh o‘zbek xalqini himoya qilgan edi.

O‘zbekistonning bugungi rahbari Shavkat Mirziyoyev ham qirg‘iz xalqiga samimiy munosabati bilan mashhur. U qisqa vaqt ichida o‘zini haqiqiy yetakchi sifatida ko‘rsatdi, O‘zbekistonn o‘zgartirishga dadil kirishdi, taraqqiyotga keng yo‘l ochib bera oldi. Shu bilan birga, bu inson o‘zbeklar bilan asrlar davomida yonma-yon yashab kelayotgan qirg‘iz xalqiga alohida hurmat-ehtiromini, muruvvatini amalda ko‘rsatdi.

Birinchidan, o‘zbeklar yetakchisi qirg‘iz an‘analariga, jumladan, she‘riyatga alohida munosabatini ikki davlat rahbarlarining 2017-yilda Bishkekda bo‘lib o‘tgan uchrashuvida yaqqol namoyon qildi. Ushbu uchrashuvda qirg‘izistonlik yosh iste‘dodli shoir Idris Aytboyevga do‘stlikni madh etishga qo‘shgan hissasi uchun zamonaviy avtomobil va uch xonali kvartira tortiq qilindi.

Ikkinchidan, o‘zbeklar yetakchisi qirg‘iz an‘analariga, jumladan, she‘riyatga alohida munosabatini ikki davlat rahbarlarining 2017-yilda Bishkekda bo‘lib o‘tgan uchrashuvida yaqqol namoyon qildi. Ushbu uchrashuvda qirg‘izistonlik yosh iste‘dodli shoir Idris Aytboyevga do‘stlikni madh etishga qo‘shgan hissasi uchun zamonaviy avtomobil va uch xonali kvartira tortiq qilindi.

Uchinchidan, qirg‘izlarni dunyoga tarannum etgan iste‘dod egasi Chingiz Aytmatovning 90 yilligi yubileyi 2018-yilda davlatining rahbari qarori bilan O‘zbekistonda o‘zgacha kayfiyatda va bayramona nishonlandi. Eshitishimizcha, buyuk adibning 95 yilligini nishonlashga hozirlik ko‘rilmogda. Ayrim sharhlovchilar yozuvchining 90 yilligi vataniga qaraganda yaxshiroq o‘lganini yozdi. Yubiley yili Toshkentning daraxtlarga to‘la bosh ko‘chasiga Chingiz Aytmatov nomi berildi, haykali o‘rnatildi. Bularning barchasi O‘zbekiston Prezidentining nazorati ostida, uning farmon va qarorlari asosida amalga oshirilganini bilamiz. Shavkat Mirziyoyev qirg‘iz xalqi bayrog‘ini ko‘targan ulug‘ adibga alohida munosabati bilan butun xalqimiz va davlatimizga hurmat-ehtiromini bildirdi.

To‘rtinchidan, ikki qo‘shni davlat chegaralari ko‘p yillardan buyon bahs-munozarali bo‘lib kelayotgan edi. Murakkab va yechimi og‘ir muammoni hal etishda O‘zbekiston Prezidentining o‘rni beqiyos. Ayni paytda chegara masalasi hal etilgan, ikki davlat o‘rtasida tinch-totuv hayot bir maromda davom etyapti. Ilgari o‘tish mumkin bo‘lmagan chegara yo‘llari ochildi, odamlar bir-biriningiga bemalol o‘tib qatnayotdi, chegaralarda o‘zaro tadbirkorlik, savdo-sotiq rivoj topyapti.

Beshinchidan, o‘zim ham bevosita Shavkat Mirziyoyev ko‘magida Toshkent shahridagi Markaziy davlat arxivida ishlash imkoniga ega bo‘lganimdan juda xursandman. Bungacha davlat arxivida Qirg‘iziston tarixiga oid arxiv hujjatlari yo‘qligi, shuning uchun ruxsat bermasliklari haqida javoblar olgan edik. U Prezident etib saylanganidan keyin Qirg‘izistonga ilk rasmiy tashrifi chog‘ida bu masala muhokama qilindi va ikki davlat tashqi ishlar vazirlariga topshiriq berildi.

O‘zbekiston Prezidentining qirg‘iz xalqi va davlatiga yuqoridagi alohida munosabati biz bilgan o‘nlab voqealarning bir qismi, xolos. Bir millatga nisbatan bunday alohida hurmat bir kechada shakllanib qolmaydi. O‘zbekiston Prezidentining adolat va xalqparvar bo‘lib voyaga yetishida oilaning, muhitning o‘rni katta. Qisqasi, qo‘shni, qardosh mamlakat rahbarining biz, qirg‘izlarga bo‘lgan hurmatini doim qadrlaymiz.

XAVFSIZLIK KENGASHLARI KOTIBLARI UCHRASHUVI

Boshlanishi 1-betda

Turkiy davlatlar tashkilotida O‘zbekiston raisligida ahamiyatga molik, keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Hamkorlik yanada kengayib, yangi yuksalish sur‘atiga ega bo‘lganiga e‘tibor qaratildi.

Turkiy davlatlar tashkilotini institutsional jihatdan isloh qilish, “yangi iqtisodiy imkoniyatlar makoni”ni yaratish, transport sohasida o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash va oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha hamkorlikni kuchaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgani qayd etildi.

O‘zbekistonning raisligi doirasida mamlakatlarning iqtisodiyot, savdo, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, kosmos, energetika vazirligi va idoralari hamda maxsus xizmatlari rahbarlarining qator muhim uchrashuvlari o‘tkazilgani ta‘kidlandi.

Shuningdek, murojaatda Tashkilot xazinalaridan imkon qadar samarali foydalanish hamda turkiy mamlakatlarning integratsiya borasidagi salohiyatini barcha sohalarida oshirish bo‘yicha izchil ish olib borilishi qayd etildi.

Xavfsizlikning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashish, bugungi notinch dunyodagi umumiy tahdid va xavf-xatarlarga qarshi birgalikda javoblar ishlab chiqishda bu kabi yig‘ilishlar samarali maydon sanaladi.

Tadbir davomida ishtirokchilar Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo davlatlarning xavfsizlikka oid mintaqaviy kun tartibi masalalariga yondashuvlari umumiyligini qayd etdi.

Tomonlar barqaror rivojlanishni ta‘minlashning amaliy jihatlari bo‘yicha idoralararo aloqalarni yanada kengaytirish muhimligini ta‘kidladi.

— Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo davlatlar Xavfsizlik kengashlari kotiblarining birinchi yig‘ilishi o‘tgan yili Anqarada bo‘lgan edi, — deydi Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Qubanichbek Omuraliyev. — O‘tgan yil noyabr oyida Samarqand shahrida Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo mamlakatlar rahbarlarining yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. O‘sha tarixiy sammitda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xavfsizlik kengashlari kotiblarining yig‘ilishini davom ettirish ekanligini ta‘kidladi. Ikkinchi yig‘ilishni Tosh-

kentda o‘tkazish tashabbusi bilan chiqdi. Bugungi yig‘ilishning kun tartibidan odam savdosi, oziq-ovqat xavfsizligi, narkotrafikka qarshi kurashish, chegaralar daxlsizligi kabi masalalar o‘rin oldi. Biz barcha sohalaridagi — oziq-ovqat xavfsizligidan tortib fuqarolar xavfsizligigacha bo‘lgan masalalarni ko‘rib chiqdik. Terrorism, ekstremizm, gijohvandlikka qarshi kurashgacha bo‘lgan xavfsizlik masalalari muhokama qilindi. Yig‘ilishda qabul qilingan qarorlarni izchil bajarish, xususan, xavfsizlik kengashining har bir kotibi va kotibiyat bilan ekspertlar guruhini tashkil etishga kelishildi.

Uchrashuvda, shuningdek, kiberjinoqiyatlikka qarshi kurashish, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlarning oldini olish masalalariga e‘tibor qaratildi. Bu borada hamkorlikni kengaytirishga oid masalalar muhokama qilindi.

Tomonlar vakolatli organlarining o‘zaro hamkorligini muvofiqlashtirish va umumiy kun tartibining dolzarb masalalari bo‘yicha qo‘shma qarorlarni o‘z vaqtida ishlab chiqish muhimligi aytili. Buning uchun tashkilotga a‘zo davlatlar Xavfsizlik kengashlari kotiblari o‘rtasidagi uchrashuvlarning doimiy mexanizmini joriy etish muhimligi alohida qayd etildi.

Anjuman doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibining Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya delegatsiyasi rahbarlari, shuningdek, Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi bilan ikki tomonlama uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi.

Ikki tomonlama uchrashuvlarda mintaqaviy xavfsizlik masalalari, Afg‘onistondagi vaziyat, shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlari, maxsus xizmatlar, mudofaa va favqulodda vaziyatlar vazirliliklari o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik asosida hamda tashkilot doirasidagi aloqalarni faollashtirish bo‘yicha fikr almashildi.

Tomonlar konstruktiv hamkorlikni davom ettirish, xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga tayyor ekanliklarini tasdiqladi.

Ikrom AVVALBOYEV, O‘ZA muxbiri

ta‘mirlanganini ko‘rib, xursandchilgimni yashirolmadim. Maktabga kirib, ustozlardan hol-ahvol so‘radim. Bu yerdagi shart-sharoitlar bilan tanishib, qalbm iftixorga to‘ldi. Sinfxonalaridagi jihozlar, o‘quv qurollari, laboratoriya uskunalari, kompyuterlar shahar maktablarinikidan aslo qolishmaydi. Chinnidek yariqiragan partalarda o‘tirib saboq olayotgan o‘quvchilarga chinakam havasim keldi. Maktab rahbari Olim Sadirovning aytishicha, dastur asosida bilim dargohining old va orqa fasadi tubdan ta‘mirlanib, xonalarga plastik eshik va romlar o‘rnatildi. Maktab atrofi temirpanjara to‘siqlar bilan o‘ralib, issiqlik tizimi tubdan yangilandi. Sport zali qaytadan ta‘mirlandi. Xullas, maktab zamonaviy qiyofa kasb etdi. Xayolimda bundan 10-15 yil oldin bo‘lgan voqea jonlandi.

Kuz faslining oxirlari edi. Ob-havo kundun-kun sovib, qishning kelishidan darak berardi. Maktabda diniy-ekstremizmga qarshi kurashga bag‘ishlangan tadbirda ishtirok etishga to‘g‘ri keldi. Unga qishloq oqsoqollari ham taklif qilingan ekan. Katta sinfxonadagi sharoitni ko‘rib, yoqa ushlagandim. Partalar ta‘mirlanaverib, yamoqqa aylanib qolgan. Sinfxona sovuq, deraza oynalari singan. Esayotgan yelvizakdan shamollash hech gap emas. Ochig‘i, ko‘pchilik xonada o‘tirolmadi...

Endi maktabda butunlay boshqacha manzara. Sinfxonalaridagi zamonaviy jihozlar o‘quvchilar ta‘lim olishi uchun har tomonlama qulay.

Odamlar ong-u shuuridagi o‘zgarishlar

Bugun mahalla odamlari ong-u shuuri-da bir vaqtlar o‘rnashib qolgan “Bizga bo‘laveradi, qishloq sharoiti shu-da” kabi eski qarashlar o‘rnida “Inson yaxshi yashashi kerak, har birimiz unga loyiqlimiz va erishishga qodirimiz”, degan ezgu da‘vatlar aks sado beradi. Endilikda mazkur dasturlar qishloq xalqi hayotiga nur olib kirdi. Keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari ularni xursand qilib, ertangi kunga umid bag‘ishlamogda. Mahalla ahli yaxshi yashashga, zamonaviy taraqqiyotning barcha qulayliklaridan bahramand bo‘lishga intilmogda.

Abdushukor LAPASOV, jurnalist



www.yuz.uz



yuz_official



yuz.uz_news



YASHIL ENERGETIKA



Xitoy elektrotexnika sanoatining keskin o‘shib borishi hisobiga dunyoda ishlab chiqarilgan misning deyarli yarmining iste’molchisidir. Batereya va akkumulyator ishlab chiqaruvchi jahondagi eng katta 10 ta korxonadan 6 tasi Xitoyda joylashgan. Shuningdek, mamlakatda umumiy qiymati 4,5 million tonna bo‘lgan litii konlari mavjud va u litii-ion batareyalarini ishlab chiqarishda ham yetakchilik qilmoqda.

ELEKTROTEXNIKA SANOATIDAGI ENG KATTA BOZOR

XITOIY BILAN YANA BIR YIRIK KELISHUV IMZOLANDI



Mirziyod YUNUSOV,
“O‘zeltexsanoat” uyushmasi
boshqaruvi raisi

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekistonga ham so‘nggi yillarda elektromobillar kirib kelishi sezilarli darajada oshmoqda. Bunday avtomobillar nafaqat ekologik toza, balki anchayin kamxarjligi sabab yurtdoshlarimiz orasida ommalashib boryapti. Joriy yilning dastlabki 7 oyida yurtimizga 7 ming 391 ta elektromobil import qilingan, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan qariyb olti barobar yuqoridir. Ushbu elektromobillarning katta qismi esa Xitoyda ishlab chiqarilgan.

Xitoy elektrotexnika sanoati, xususan, elektromobil, yarimo‘tkazgichlar, maishiy texnika va boshqa ko‘plab turdagi texnologiyalar olamida yetakchi ishlab chiqaruvchi davlatdir. Mamlakat o‘tgan yili 954 milliard dollar-



lik elektrotexnika mahsulotlari eksport qildi. Bu yo‘nalishda shu qadar ilg‘orlab ketganki, ulardagi zamonaviy texnologiyalar, yuqori ishlab chiqarish quvvatlarini chinakam inqilob, deyish mumkin.

Biz ana shu jarayonlarga bevosita guvoh bo‘ldik. Davlatimiz rahbarining shu yil 17-18-oktabr kunlari Xitoyga tashrifi doirasida mamlakatning elektrotexnika sanoat korxonalarini faoliyati bilan ham tanishdik. Shu yo‘nalishda erishilgan kelishuvlar, hamkorlik bitimlari mamlakatimiz elektrotexnika tarmog‘i rivoji yo‘lidagi katta qadamlardan biri bo‘ladi, desak mubolag‘a emas.

“Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro forumi doirasida Prezidentimiz Xitoyning gigant kompaniyalaridan biri — “Amer International” xoldingi raisi Van Venin bilan uchrashdi. Muzokaralar juda samarali va o‘zaro manfaatli kechdi. Davlatimiz rahbari har bir investor, biznesmen va kompaniya rahbarlari bilan muzokaralarga ularning yurtimizga investitsiya kiritishi uchun barcha sharoit yaratilganini ta’kidladi. Muzokaralar natijasida mamlakatimizda misni chuqur qayta ishlash orqali qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar, jumladan, elektrotexnika vositalari, elektromobillar uchun akkumulyator batareyalari, mikroelektronika mahsulotlari va yarimo‘tkazgichlar ishlab chiqarish kabi innovatsion loyihalarni amalga oshirishga doir “yo‘l xaritasi” qabul qildi.

“Amer International” yuksak texnologiyalar, elektronika, yarimo‘tkazgichlar sanoati, metallurgiya va konchilik tarmoqlaridagi loyihalarini bilan mashhur. Ayni paytda kompaniya dunyo bo‘ylab amalga oshirayotgan loyihalarining umumiy qiymati

60 milliard dollardan ko‘proq. Xolding Xitoyning 10 ga yaqin hududi hamda jahonning iqtisodiy markazlari bo‘lgan Singapur, Jeneva va Los-Anjeles kabi shaharlarda yirik ishlab chiqarish quvvatlariga ega.

Kompaniyaning yillik aylanma daromadi 100 milliard dollarni tashkil qilmoqda. Ular egalik qiladigan Xitoydagi birgina Tunlin mis ishlab chiqarish sanoat parki yiliga 400 ming tonnaga yaqin mahsulot tayyorlaydi. Bu kichik raqamlar emas. Demak, mazkur kompaniya bilan hamkorlik O‘zbekiston iqtisodiyoti, sanoati rivoji, qolaversa, mintaqada yirik xalqaro brendlarning keng jalb etilishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Elektrda harakatlanadigan transport vositalari ishlab chiqarilishida asosiy xom-ashyo mis bo‘lib, issiqlik va elektr quvvatini eng yaxshi o‘tkazuvchi, elektrotexnika mahsulotlari asosi hisoblanadi. Agar oddiy avtotransport vositasini tayyorlashda 8 kilogrammdan 20 kilogrammgacha mis ishlatilsa, elektromobilda bu ko‘rsatkich 83 kilogrammgacha yetadi. Shu bois, jahonda mis xomashyosini ishlab chiqarish va qayta ishlashga talab tobora ortib boryapti.

Xitoy elektrotexnika sanoatining keskin o‘shib borishi hisobiga dunyoda ishlab chiqarilgan misning deyarli yarmining iste’molchisidir. Batereya va akkumulyator ishlab chiqaruvchi jahondagi eng katta 10 ta korxonadan 6 tasi Xitoyda joylashgan. Shuningdek, mamlakatda umumiy qiymati 4,5 million tonna bo‘lgan litii konlari mavjud va u litii-ion batareyalarini ishlab chiqarishda ham yetakchilik qilmoqda.

O‘zbekiston bugun yaqin qo‘shnichilik va pragmatik tashqi siyosati tufayli rivojlangan davlatlar bilan barcha tarmoqlar qatori elektrotexnika sanoatida ham samarali aloqalar o‘rnatayotganiga guvoh bo‘lyapmiz. Jum-

ladan, Xitoy bilan ushbu yo‘nalishdagi hamkorlikni kengaytirish, o‘zaro tajriba almashish va savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish yurtimiz elektrotexnika sanoati taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadi.

Shu bois, so‘nggi yillarda nafaqat elektromobil importi, balki shunday avtomobillarni mamlakatimizda ishlab chiqarish bo‘yicha ham Xitoyning yirik kompaniyalari bilan ishlab olib borilyapti. Xususan, Farg‘onada Xitoy kompaniyasi bilan hamkorlikda elektromobil ishlab chiqarish loyihasi yakuniy bosqichga yetish arafasida. Toshkent shahri va Qo‘qonda esa elektr skuterlar ishlab chiqarish to‘liq o‘zlashtirildi.

Xitoyda o‘tgan xalqaro forum ana shunday salmoqli va yangi loyihalar uchun yo‘l ochib berdi. “Amer International” kompaniyasi bilan o‘tkazilgan muzokaralar yakunida yana bir hamkorlik kelishuvi imzolandi. Bu Toshkent viloyatida ish boshlagan “Ohangaron Tech Industrial” texnoparkida “Mis folgasi ishlab chiqarish” loyihasidir. Kelishuv doirasida yiliga 50 ming tonna misni qayta ishlash quvvati yaratiladi. Muzokaralar davomida kompaniya rahbari bilan oldimizdagi vazifalarni muhokama qildi. Tez fursatlarda ishchi guruh tuzib, amaliy ishlarni boshlash bo‘yicha kelishib oldik.

Xitoyning shu va boshqa yetakchi kompaniyalari mamlakatimizga Markaziy Osiyo mintaqasidagi biznesining bosh yo‘nalishi sifatida qarayotgani bizni quvontirdi. Xitoy mahalliy elektrotexnika sanoatimizda asosiy importyor davlatlardan biri bo‘libgina qolmay, ishlab chiqarishdagi faol hamkorimizga aylanmoqda.



MUNOSABAT

“MAKON VA YO‘L” VAQT HAM, MASOFA HAM QISQARADI

Sohibjon TOPILDIYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor



O‘zbekiston “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusini faol qo‘llab-quvvatlabgina qolmay, uning asosiy ishtirokchilaridan biriga aylangan. Loyiha davlatlar o‘rtasidagi transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga keng yo‘l ochadi. Bu esa tashabbus doirasida barcha sohalarda ilgari surilayotgan sa‘y-harakatlar, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, iqlim o‘zgarishlarining oqibatlarini kamaytirish, tinch va xavfsiz muhitni yaratish, do‘stona aloqalarni mustahkamlash hamda “Yashil ipak yo‘li” g‘oyasini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Boshlanishi 1-betda

Bu Xitoy tomonidan ilgari surilgan “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusining asosiy qismidir. Bundan o‘n yil oldin

kengayib boryapti, demakki, o‘zaro hamkorlikka tayyor davlatlar ko‘p va ular bir-birini bog‘lovchi transport-



boshlangan ushbu tashabbus, avvalo, dunyo xalqlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, Xitoyni jahon aholisining 30 foizi va yalpi ichki mahsulotining 30 foizi to‘g‘ri keladigan 65 dan ortiq mamlakat bilan bog‘laydigan yangi transport yo‘llarini shakllantirishga qaratilgan bilan ahamiyatli. Bugungi kunga kelib esa “Makon va yo‘l” g‘oyasi xalqaro hamkorlikning yangi modeliga aylandi.

O‘zbekiston ushbu tashabbusni birinчилardan bo‘lib qo‘llab-quvvatlagan. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimiz harakatning faol a‘zosisga aylanib, qator loyihalarda ishtirok etib kelmokda. Davlatimiz rahbari shu yil 18-oktabr kuni Pekin shahrida bo‘lib o‘tgan “Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro forumidagi nutqida ham dastur tarafdorlarining umumiy taraqqiyot va farovonlikka erishish yo‘lidagi zaruriy, inklyuziv va ochiq platformaga aylanganini ta’kidladi.

Xalqaro forumning bu galgi mavzusi “Inson va tabiat uyg‘unligi yo‘lida “Yashil ipak yo‘li”ni birgalikda barpo etish”ga bag‘ishlandi. Ya’ni barcha sohalarda “yashil” texnologiyalarni rivojlantirish, tobora dolzarb bo‘lib borayotgan iqlim o‘zgarishlari oqibatlarining oldini olish va sayyoramiz iqlimini saqlab qolishga asosiy urg‘u berilmoqda. Qolaversa, sammit kun tartibidan savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, transport-kommunikatsiyaviy o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, raqamlashtirish dasturlarini ilgari surish va boshqa masalalar o‘rin oldi.

Davlatimiz rahbari sammit ishtirokchilari bilan munosabatlarni yanada mustahkamlashga doir fikrlarni bildirib, tashabbus maqsadlariga monand bir qator takliflarni ilgari surdi. “Yashil” taraqqiyot dasturi”ni ishlab chiqish, Orolbo‘yi mintaqasida Maxsus namunali texnologik parkni tashkil etish, O‘zbekistonda “Yashil” moliyalashtirish” jamg‘armasini ta’sis etish, dasturda ishtirok etayotgan mamlakatlarda “yashil” mahsulotlar, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘zaro savdosidagi cheklov va to‘siqlarni kamaytirish, “yashil” energiyaga o‘tish bo‘yicha muloqotni faollashtirish tashabbuslari shular jumlasidan. Loyiha doirasida “yashil” madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha Global dasturni ishga tushirish ham taklif etildi.

Barcha ishtirokchi davlatlar ilgari surilayotgan takliflar ularni bir maqsad yo‘lida birlashtirishga qaratilganini ta’kidlamokda. Birgalikdagi sa‘y-harakatlar orqali esa insoniyatning “yashil” kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratish ko‘zda tutilgan. Qolaversa, tashabbus ko‘lami tobora

tranzit yo‘nalishidagi yangi loyihalar-dan manfaatdor.

Quruqlikdagi imkoniyatlar ishga solinadi

Jahon ekspertlar hamjamiyati Xitoy tomonidan ilgari surilgan “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusining transportga doir qismi xususida ko‘p so‘z yuritmoqda. Boisi, ayni shu jihat Markaziy Osiyoning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini yanada oshiradi. Mintaqada



kechayotgan katta o‘zgarishlar, tezkor rivojlanish yangi transport-tranzit yo‘laklarini ochish, dunyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo hajmining ortishiga imkon yaratadi.

Tahlillarga ko‘ra, “Bir makon, bir yo‘l” global loyihasining amalga oshirilishi Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi savdosida yuk yetkazib berish vaqti va savdo xarajatlarini ancha qisqartiradi. Masalan, “Xitoy — Markaziy Osiyo — G‘arbiy Osiyo” iqtisodiy kamari bo‘yicha yuk tashish vaqti 25 foizdan ko‘proqqa qisqarishi, savdo xarajatlari esa 21 foizga pasayishi mumkin. Operatsion xarajatlarning kutilayotgan kamayishi xalqaro va mintaqaviy savdo hajmini oshirish, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va mintaqada qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Shu bois, Markaziy Osiyo mamlakatlarining transport-tranzit salohiyatini oshirish, barcha turdagi transport vositalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, qo‘shimcha yuk tashish oqimlarini jalb etish imkonini beradigan yangi transport va tranzit yo‘laklarini shakllantirish, xalqaro logistika markazlari tarmog‘ini yaratish, xorijiy mamlakatlarning portlaridan samarali foydalanish masalalari mintaqamiz uchun



dolzarb ahamiyat kasb etadi. Belgilangan vazifalar qatorida Markaziy Osiyoda Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Yevropa, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarini birlashtiruvchi yagona integratsiyalashgan xabni yaratish ham bor. “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi tarafdorlarining maqsadi esa ana shu vazifalarni birgalikda amalga oshirish, mintaqa tranzit salohiyatini rivojlantirish, xalqaro transport yo‘laklaridan foydalanish samaradorligini kengaytirib, xalqaro tashuvlar jarayonidagi turli to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, me’yoriy-huquqiy baza va tarif siyosatini takomillashtirishdan iborat.

Bu borada mintaqa davlatlari yetarlicha imkoniyatga ega. Birgina temir yo‘l transportini olaylik. Hozirgi kunda ushbu transport vositasi yuk tashuvida asosiy o‘rinni egallaydi. Boisi, mintaqa mamlakatlarida bevosita dengizga chiqish yo‘llari yo‘qligi sababli quruqlik transportini rivojlantirish hamda tranzit salohiyatini oshirishga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari temir yo‘llarining uzunligi 22 ming kilometrga teng. Qozog‘istonda eng yirik va eng ko‘p foydalaniladigan temir yo‘llar tizimiga ega bo‘lib, uning hissasiga mintaqadagi temir yo‘llarning 66 foizi va barcha yuk tashishlarning 84 foizi to‘g‘ri



keladi. Hududdagi temir yo‘llarning qariyb 18 foizi esa O‘zbekistondan o‘tadi va barcha tashishlarning qariyb 11 foizi mamlakatimiz orqali amalga oshiriladi. Turkmaniston taxminan 12 foiz mintaqaviy temir yo‘llarga ega-lik qiladi va barcha tashishlarning 4 foizini ta’minlaydi.

Transport-logistika tizimi rivojida yangi bosqich

Yurtimiz Markaziy Osiyoning markazida joylashgani bois, barcha davlatlar o‘rtasidagi muhim bo‘g‘in, o‘zaro hamkorlikning asosiy katalizatori hisoblanadi. Mamlakatimiz 2017-yildan buyon mintaqa davlatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish va umumiy xavfsizlikni ta’minlash maqsadida barcha yo‘nalishlarda ochiq tashqi siyosat olib bormoqda.

Ayniqsa, mintaqa davlatlari o‘rtasida transport-kommunikatsiya tizimini shakllantirish, transport-logistika sohasida yangi investitsiya loyihalarini ishlab chiqishga doir sa‘y-harakatlarni faollashtirish, ko‘p tomonlama hamkorlik uchun qulay sharoitlar yaratishga katta hissa qo‘shyapti. Buning natijasida Markaziy Osiyo orqali o‘tadigan qator xalqaro transport yo‘laklari tashkil etilmoqda.

Ushbu jarayonlarda, ayniqsa, O‘zbekistonning faol ishtiroki ortib borayotganini kuzatish mumkin. Xususan, mamlakatimizni qator xorijiy davlatlar, Frankfurt, Milan, Bryussel, Vena, Saragosa, Oslo, Bazel, Dubay, Teheron, Shanxay kabi yirik logistika markazlari bilan bog‘laydigan “Navoiy” xalqaro intermodal logistika markazi faoliyati jadal rivojlanmoqda. Amudaryo orqali o‘tadigan ko‘priklar esa yuk oqimlarini Osiyo va Tinch okeani mintaqasi, Janubiy Osiyo davlatlaridan Kaspiy dengizi, undan keyin Qora dengiz va O‘rta yer dengizi mintaqasi, Yevropa, Kavkazorti, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib chiqish imkonini beradi. Bu ko‘priklar O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron — O‘mon transport-tranzit yo‘nalishining muhim bo‘g‘ini hamdir.

2017-yil fevralida Markaziy Osiyodan ilk bor Xitoyga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqadigan Toshkent — Andijon — O‘sh — Irkeshtom — Qashg‘ar avtomobil yo‘lagi orqali qatnov yo‘lga qo‘yildi. Yana bir loyihaga ko‘ra, 2018-2023-yillarda Xitoy va G‘arbiy Yevropani bog‘laydigan “Yevroosiyo” transport yo‘lagini qurish va foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Ushbu magistral Pekindan boshlab Ostona, Moskva va Minsk orqali Berlinga qadar davom etadi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, 2050-yilga borib, yo‘lak orqali yiliga 37 million yo‘lovchi tashiladi.

Davlatimiz rahbari 2018-yil iyun oyida Sindao shahrida bo‘lib o‘tgan SHHT sammitida O‘zbekiston Mozori Sharif — Hiroto, Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘lini qurish, shuningdek, Markaziy Osiyo — Fors ko‘rfazi, “Shimol — Janub” va “Sharq — G‘arb” transmintaqaviy yo‘laklarni rivojlantirish tarafdori ekanini ta’kidladi. Natijada oxirgi yillarda Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘li qurilishi faollashdi. Mazkur loyiha SHHT mamlakatlari uchun dolzarb ahamiyatga ega. Uning amalga oshirilishi loyiha ishtirokchilari hamda Markaziy Osiyoning boshqa barcha davlatlari va Xitoy o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish imkonini beradi. Ushbu temir yo‘l Xitoy yuklarini Yevropa mamlakatlariga yetkazadigan eng qisqa yo‘llardan biriga aylanadi va Markaziy Osiyo transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yuk tashuvlari esa Qirg‘iziston va O‘zbekiston orqali o‘tadi.

Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘li loyihasi Sharqiy Osiyodan Yaqin Sharq va Janubiy Yevropa mamlakatlariga bo‘lgan yo‘lni taxminan 900 kilometrga, yuk yetkazib berish muddatini esa 7-8 sutkaga kamaytiradi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, yuk tashish hajmi yiliga 12-15 million tonna atrofida bo‘ladi.

Mazkur loyiha va umuman, Xitoy bilan bog‘lovchi temir yo‘l qurilishi ortidan O‘zbekistonning

transport-logistikasi borasidagi o‘rmi keskin o‘zgaradi, deb ayta olamiz. Ya’ni yurtimiz markaziy nuqtaga aylanib, chorraha vazifasini bajaradi. Qolaversa, yo‘lakni Janubiy Osiyo (Pokiston) tomon burish ham mumkin.

Umuman, O‘zbekiston “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusini faol qo‘llab-quvvatlabgina qolmay, uning asosiy ishtirokchilaridan biriga aylangan. Loyiha davlatlar o‘rtasidagi transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga keng yo‘l ochadi. Bu esa tashabbus doirasida barcha sohalarda ilgari surilayotgan sa‘y-harakatlar, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, iqlim o‘zgarishlarining oqibatlarini kamaytirish, tinch va xavfsiz muhitni yaratish, do‘stona aloqalarni mustahkamlash hamda “Yashil ipak yo‘li” g‘oyasini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



TARAQQIYOT YO'LI



yuz.uz_news

Yoshlar eng bebaho va juda muhim resurs hisoblanadi, shuning uchun ularga sarflangan sarmoya ko'p karra miqdorlarda o'zini qoplaydi.

BMTning “Yoshlar – 2030” strategiyasidan.

YOSHLAR HUQUQLARI: 2030

IMKONIYATLAR VA HIMOYA QILISH

(POYTAXTIMIZ SHU MAVZUDAGI XALQARO

“

Yer yuzining qaysi hududida bo'lmasin, yoshlar yanada adolatli va teng huquqli muhitda yashashni hamda eng zamonaviy imkoniyatlar va qulayliklardan foydalanishni, qolaversa, o'zlari mansub jamiyatlardagi qarorlar qabul qilish jarayonlarida erkin ishtirok etishni xohlaydi. Ular hozirgi davrda to'laqonli ta'minlanishi tobora o'tkir muammoga aylanayotgan ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va gender tenglik bilan bog'liq huquqlari yo'lidagi turli g'ovlar bartaraf etilishini haqli ravishda talab qilib chiqmoqda.

Boshlanishi 1-betda

Yoshlar huquqlari bo'yicha xalqaro anjuman: uning tashabbuskori va ahamiyati

— Bashariyatning necha ming yillik tarixiy rivojlanish tajribasi shundan dalolat beradiki, har qanday davlatning kelajagi hamisha yosh avlodga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib kelgan, — dedi A.Saidov. — Chunki aynan 18-30 yosh oraliqidagi navqiron insonlarning kreativ, ya'ni zamonaviy fikrlashi, bemiyl shiddat-shijoati, ijtimoiy mas'uliyatni his etib yashashi, puxta bilim olganligi va muayyan kasb-korni egallagani har qanday demokratik jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

E'tibor bering: **hozirgi kunda sayorimizda istiqomat qiladigan 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan insonlar soni 1 milliard 200 milliondan ortiq bo'lib, bu dunyo jami aholisining 16 foizi, deganidir.** BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarining bajarilishi muddati tugaydigan sana, ya'ni 2030-yilda ushbu ko'rsatkich 7 foiz ko'payib, salkam 1 milliard 300 millionga yetishi kutilmoqda.

Shu ma'noda, O'zbekiston yoshlarini intellektual, jismoniy va ma'naviy-ruhiy jihatdan barkamol etib tarbiyalash uchun davlat va jamiyatning kuch-salohiyati, mablag'i va boshqa zarur imkoniyatlari tobora ko'p, izchil hamda tizimli asosda yo'naltirilayotgani bejiz emas. Binobarin, bugungi kunda mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 19 million 600 mingdan ziyodni yoki aholining 55,6 foizini tashkil qilmoqda. Mehnat bozoriga har yili o'rta 600 ming yosh kirib kelayotgani hisobga olinsa, kelgusi 10 yilda bu raqam 1 millionga yetadi.

— **Yoshlar huquqlariga bag'ishlab qadimiy, go'zal va fusunkor shahri azim — Toshkentimizda xalqaro forum o'tkazish tashabbusi kim tomonidan, qachon va qayerda ilgari surilgan?**

— Ushbu jahon anjumanining tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevdir. Prezidentimizning 2023-yil 12-maydagi farmoni bilan tasdiqlangan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilganligining 75 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi”da (26-band) xuddi shu mavzuda xalqaro forum o'tkazish ko'zda tutilgan.

Bu haqda fikr yuritganda, albatta, O'zbekiston Prezidenti Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlangan nutqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida Markaziy Osiyo yoshlari rivojiga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tuzish tashabbusi bilan chiqqanini ta'kidlash zarur. Nega deganda, ushbu tashabbus bizning butun mintaqada yoshlar huquqlarini eng yuksak darajada ta'minlash va ro'yobga chiqarishdan manfaatdorligimizni amalda yana bir bor tasdiqladi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlarida istiqomat qiladigan jami aholining qariyb yarmini yoshlar tashkil etadi. Bu muhim omil, bir tomondan, ana shu ko'p sonli navqiron insonlarning huquqlarini yanada to'la ta'minlash choralarining dolzarbligini bildirsa, ikkinchi tomondan, barkamol yosh avlod kuch-shijoati, bilimi va salohiyatini taraqqiyot, barqarorlik hamda

bunyodkorlik faoliyatiga yo'naltirish alohida ahamiyat kasb etishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti joriy yil 16-oktyabr kuni Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining 25-sessiyasida qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Davlat rahbari, jumladan, yaqinda Samarqandda ochilgan turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha dunyoda o'xshashi yo'q UNWTO Xalqaro turizm akademiyasida mutaxassislarini o'qitish uchun maxsus grantlar ajratilishini e'lon qildi. O'zbekiston Prezidenti, shuningdek, yoshlar uchun sayyohlikni rivojlantirish loyihalari hamda yangi g'oyalarni yaratishda muhim va foydali maydonga aylanadigan Jahon yoshlar turizmi sammitining navbatdagiisini Toshkent shahrida o'tkazishni taklif etdi.

Yoshlar masalasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida doimiy faoliyat yuritadigan **Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari yoshlari kengashini** tuzish; **O'zbekistonda Markaziy Osiyo yoshlari forumini** o'tkazish;

yoshlarga doir siyosatning umumiy yo'nalishlari to'g'risida ko'p tomonlama bitim tayyorlash;

o'zaro innovatsion hamkorlik va yoshlar masalasida munosabatlar sohasida qabul qilingan strategik dasturiy hujjatlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekistonda **MDH mamlakatlari yosh olimlarining “Yoshlar — innovatsiya taraqqiylari” shiori ostidagi birinchi kongressini** o'tkazish;

“**SHHT — ilg'or g'oyalar va kelajak tashabbuslari makoni**” mavzusida yoshlar o'rtasida muloqotni kengaytirish bo'yicha tadbirlar dasturini tayyorlash;

mamlakatlarimizdagi iste'dodli yoshlar uchun ilm-fan va ta'lim sohasida Al-Xorazmiy, Forobiy, Jomiy, Maxtumlul, Chingiz Aytmatov kabi Markaziy Osiyo zaminidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, alloma va faylasuflar nomidagi **min-taqaviy grant va stipendiyalar** ta'sis etish;



yosh avlodni ekstremistik g'oyalar ta'siridan himoya qilish maqsadida **yoshlarning radikalashuviga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlik bo'yicha Min-taqaviy kompleks dastur** ishlab chiqish; suv va boshqa tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish madaniyatini shakllantirish, maxsus dasturni qabul qilgan holda, **yoshlar tashabbuslari va startaplarini qo'llab-quvvatlash masalalarida yoshlar bilan ishlashni min-taqaviy darajada tashkil etishga** alohida e'tibor qaratish;

“**Hamdo'stlik kubogi**” futbol turnirini **qayta tiklash** va yoshlar jamoalari o'rtasida navbatdagi uchrashuvlarni O'zbekistonda o'tkazish;

Yosh iste'dodlar (Markaziy Osiyo — Xitoy) forumini yo'lga qo'yish va hokazo.

Ayni tashabbuslarning aksariyati ro'yobga chiqqan bo'lsa, boshqalarini amalga oshirish jarayonlari izchil davom etmoqda.

O'zbekiston Prezidenti bunga qadar — BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida **BMTning Yoshlar huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surgandi.** O'z navbatida, davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida xalqaro hamjamiyatni ushbu Konvensiyaning qabul qilinishi bilan bog'liq O'zbekiston tashabbusini qo'llab-quvvatlashga chaqirdi.

Yoshlar huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyani ishlab chiqish tashabbusining ro'yobga chiqarilishi yoshlar duch kelayotgan muammolarga samarali yechimlar topish, shuningdek, xalqaro hujjatlarda mavjud bo'lgan yoshlar huquqlariga taalluqli ayrim nomuvofiq o'rinlarni bartaraf etishda katta rol o'ynaydi. Shuni inobatga olgan holda, xalqaro jamoatchilik orasida mazkur tashabbusni qo'llab-quvvatlovchilar safi ortib bormoqda.

O'z navbatida, mazkur xalqaro forumni o'tkazish uchun nega aynan Toshkent shahri tanlandi, degan savol tug'ilishi mumkin. Gap shundaki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) hukumat rahbarlari kengashining qaroriga ko'ra, 2024-yil bo'yicha **Toshkent shahriga “MDH Yoshlar poytaxti” maqomi berildi.** Shu nuqtayi

nazardan, yoshlar huquqlari bo'yicha xalqaro anjumaning poytaxtimizda bo'lib o'tishi mantiqan asosli va har tomonlama maqbul, deb hisoblaymiz.

— **Yoshlar huquqlari bo'yicha milliy yoki min-taqaviy emas, aynan xalqaro forum o'tkazilishini qanday izohlaysiz?**

— Ushbu voqealik O'zbekistonning Yoshlar huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiya ishlab chiqishga doir tashabbusi bevosita xalqaro mazmun-mohiyatga egaligi bilan chambarchas bog'liq. Prezidentimizning xalqaro tashabbusi butun dunyo yosh-



lari huquqlarini, demakki, ularning to'kis va farovon buguni hamda baxtli kelajagini ta'minlashga qaratilgan.

Yer yuzining qaysi hududida bo'lmasin, yoshlar yanada adolatli va teng huquqli muhitda yashashni hamda eng zamonaviy imkoniyatlar va qulayliklardan foydalanishni, qolaversa, o'zlari mansub jamiyatlardagi qarorlar qabul qilish jarayonlarida erkin ishtirok etishni xohlaydi. Ular hozirgi davrda to'laqonli ta'minlanishi tobora o'tkir muammoga aylanayotgan ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va gender tenglik bilan bog'liq huquqlari yo'lidagi turli g'ovlar bartaraf etilishini haqli ravishda talab qilib chiqmoqda.

Yoshlarning taraqqiyot sohasidagi hal qiluvchi mavqeidan kelib chiqib, ularga o'z salohiyatlarini namoyon etishi uchun yaratilgan bilim berish va imkoniyatlar ehti-jini keng ochish kerak. Xususan, yoshlar iqtisodiyot rivojiga munosib ulush qo'sha olishi uchun, bir tomondan, ular zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, ikkinchi tomondan, mehnat bozorida keng yo'l ochib berilishi shart.

Shu ma'noda, BMT tarixida ilk bor bu borada “**Yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb etish orqali demokratiyani mustahkamlash**” nomli **Yoshlar strategiyasi** qabul qilingani juda muhim. O'zbekiston 2030-yilgacha mo'ljallangan BMT strategiyasini shiddat bilan amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti qisqa muddat ichida O'zbekistonda Yoshlar parlamenti, BMTning Yoshlar maslahat kengashi tuzilganini olqishladi. Mamlakatimizda

yoshlarni jamiyat hayotiga tom ma'noda jalb etish, ularning vazifasini bajarib kelayotgani tubdan kengaytirishga qaratilgan ko'plab strategiyalar qabul qilingani ham xalqaro hamjamiyat e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Yoshlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmlari

— Yoshlar huquqlarini himoya qilish tizimini rivojlantirish sohasida Afrika, Osiyo, Yevropa qit'alari hamda Tinch okeani va Lotin Amerikasi mintaqalarida hukumatlararo konferensiyalar tomonidan qabul qilingan ilg'or vosita va standartlar eng muhim o'rinlarni egallab turibdi. Bu vosita va standartlarning aksariyati BMT doirasida qabul qilingan bo'lib, **keyingi 30 yilda yoshlar huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro hujjatlar soni 10 tadan oshganini** ta'kidlash darkor.

Shubhasiz, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi insonning, shu jumladan, yoshlarning ajralmas huquqlari kafolatlan-gan birinchi xalqaro-huquqiy hujjat hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, joriy yilda maz-

rag'bat uchun siyosiy yo'riq hamda rahbariy prinsiplar vazifasini bajarib kelayotgani ahamiyatlidir.

BMT Xavfsizlik kengashi 2015-yil 9-dekabrda **Yoshlar, tinchlik va xavfsizlik to'g'risidagi rezolyutsiyani** qabul qilgani, shubhasiz, yoshlarning dunyo barqarorligi va taraqqiyotida tutgan faol rolini e'tirof etish borasida muhim qadam bo'ldi. Ushbu rezolyutsiya orqali Xavfsizlik kengashi barcha davlatlarni butun dunyoda tinchlik o'rnatilishi va zo'raonliklar barham topishiga erishish jarayonlarida yoshlarning amaliy ishtirok etishiga sharoitlar yaratadigan mexanizmlarni tabiiq etishga chaqirgan.

BMT Bosh Assambleyasi 2015-yil 17-dekabrda **Yoshlar va inson huquqlari to'g'risidagi rezolyutsiyani** qabul qilgan. Unda ham yoshlarning huquqlarini ta'minlash masalalari va ayni jarayonlarda faol ishtirok etishga chaqiriq o'z ifodasini topgan. **Yoshlarni inson huquqlari bo'yicha o'qitish eng ustuvor vazifa etib belgilangan.**

Bundan tashqari, 2019-yil qabul qilingan **Yoshlar siyosati va dasturlari bo'yicha “Lissabon+21” deklaratsiyasi** yoshlarning huquqlarini turli shakl va ko'rinishlarda himoya qilish, rag'batlantirish hamda amalga oshirishga qaratilgan qat'iy chorlovdur. Deklaratsiyada barcha yoshlar, ayniqsa, xotin-qizlar, jamiyatning zaif qatlamlari, xususan, ehtiyojmand va migrant, qishloqda yashaydigan va nogironligi bo'lgan hamda qandaydir jihatdan kamsitishlarga duch kelgan yosh avlod vakillarining aniq ehtiyojlari-qanoatlantirish muhimligi ta'kidlangan.

BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarida yoshlar huquqlarining ahamiyati eng muhim masalalar qatorida yana bir bor alohida qayd etildi. Unga ko'ra, yoshlarning faol va farovon hayoti, ularning huquqlari va imkoniyatlari doirasini kengaytirish butun dunyoda barqaror rivojlanishni ta'minlashning hal qiluvchi omili sanaladi.

Shu nuqtayi nazardan, Barqaror taraqqiyotning barcha, ya'ni 17 maqsadi va 169 vazifasida yoshlar manfaatlarini hisobga olingani diqqatga sazovor. Yanada muhimi, bugungi kunda jahon yoshlari BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarida belgilangan maralarni zabt etishda faollik ko'rsatib, peshqadamlar safida bormoqda.

Yoshlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro mexanizmlardan yana biri — **BMTning “Yoshlar — 2030” strategiyasidir.** Yosh avlod vakillari ehtiyojlarini ta'minlash va salohiyatini mustahkamlash, shuningdek, yoshlarning huquqlarini barcha shakl va ko'rinishlarda kengaytirishga oid ushbu hujjatda qayd etilganidek, “**Yoshlar eng bebaho va juda muhim resurs hisoblanadi, shuning uchun ularga sarflangan sarmoya ko'p karra miqdorlarda o'zini qoplaydi**”.

BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi O'zbekiston taklifiga ko'ra, 2021 va 2022-yillarda yoshlar huquqlari bo'yicha 2 ta rezolyutsiya qabul qildi. Xususan, 2021 yil 8-oktabr kuni Jeneva shahrida BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 48-sessiyasi doirasida qabul qilingan **Yoshlarning inson huquqlariga COVID-19 pandemiyasi ta'siri oqibat-lari to'g'risidagi rezolyutsiyani** ishlab chiqish va qabul qilish tashabbusini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 22-fevral kuni BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida ilgari surgan.

O'z navbatida, 2022-yil 4-oktabrda BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi 51-sessiyasida “**Yoshlar va inson huquqlari**” **rezolyutsiyasi** qabul qilindi. Unda yoshlarning o'z mamlakatlari rivojlanishidagi ishtirokini kengaytirish, navqiron avlod uchun teng imkoniyatlar yaratish, yoshlarni raqamli tahdidlardan himoya qilish, ular uchun inson huquqlari sohasidagi ta'lim bo'yicha tashabbuslarni ilgari

“

Milliy qonunchilimizga ko‘ra, 30-iyun — O‘zbekiston Respublikasida Yoshlar kuni etib belgilangan. Shuningdek, 2020-yil 30-iyunda Prezident farmoniga asosan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi — O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

MEXANIZMLARI

FORUMGA MEZBONLIK QILADI)

surish, yoshlarning hayot tarziga ta'sir o'tkazadigan qarorlarni qabul qilishda qatnashishi kabi masalalar ifodasini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2022-yil “Turkiy dunyoda yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash yili” deb e‘lon qilindi. Shu negizda O‘zbekiston va Turkiy davlatlar tashkilotining yoshlar huquqlarini rag‘batlantirishga asoslangan yondashuvni ilgari surish borasidagi xalqaro siyosatga sodiqligi jahon hamjamiyati e‘tiboriga yetkazildi.

Yangi O‘zbekiston yoshlari: imkoniyatlar va istiqbollar

— O‘zbekistonda yoshlarga har tomonlama va yuksak g‘amxo‘rlik ko‘rsatish masalasi davlat siyosatining ustuvor sohalari-dan biri hisoblanadi. Aholining teng yarmidan biri hisoblanadi. Aholining teng yarmidan ko‘pini tashkil etuvchi yoshlar jo‘shqin va serg‘ayrat ekani, mamlakatimizning zamonaviy asoslarda yanada taraqqiy etishining tayanch kuch-qudrati sanalgani uchun davlatimiz va jamiyatimizning doimiy e‘tiborida bo‘lib kelmog‘da.

Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama qamrab olish hamda kafolatlashga alohida bob ajratildi. Asosiy qonunimizga yoshlarning ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash, uy-joyga ega bo‘lish, ishga joylashish, hordiq chiqarishga oid huquqlarini himoya qilish hamda

kengashining o‘ninchi forumida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya loyihasini taqdim etish;

uchinchidan, BMTning Yoshlar huquqlari bo‘yicha maxsus ma‘ruzachisi institutini ta‘sis etish tashabbuslarini ilgari surdi.

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” qabul qilindi. Konsepsiyada hal etishga qaratilgan asosiy vazifalar qatoridan jismonan sog‘lom, ma‘nan rivojlangan yigit-qizlarni tarbiyalash, ularning ilmiy va ijodiy salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilish, yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy islohotlarga faol jalb etish masalalari o‘rin olgan.

Milliy qonunchilimizga ko‘ra, 30-iyun — O‘zbekiston Respublikasida Yoshlar kuni etib belgilangan. Shuningdek, 2020-yil 30-iyunda Prezident farmoniga asosan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi — O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bilan bevosita shug‘ullanadigan ushbu agentlik 2022-yildan boshlab o‘z faoliyatida mahallalargacha kirib bordi. Natijada qisqa vaqt ichida 700 mingdan ziyod yigit-qizni rag‘batlantirish uchun ularga “Yoshlar daftri” vositasida 650 milliard so‘m mablag‘ ajratilgani e‘tiborni tortadi.



shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoyasini ta‘minlash, shuningdek, ularning jamiyat hayoti va davlat ishlarida faol ishtirok etishiga zarur sharoitlar yaratish yuzasidan davlat zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklaydigan yangi normalar kiritilgani juda muhim.

Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida navqiron avlod vakillarining huquqlarini ta‘minlash va qonuniy manfaatlarini kafolatlashga qaratilgan izchil va ko‘lamdor chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayni yo‘nalishdagi davlat siyosatining asosi hisoblanuvchi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunda davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishlardagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi huquqiy negizda mustahkamlangan.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda 2021-yilni “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e‘lon qilar ekan:

birinchidan, BMT shafeligida Yoshlar huquqlari bo‘yicha butunjahon konferensiyasini o‘tkazish;

ikkinchidan, BMT Iqtisodiy va ijtimoiy

Prezidentimizning 2022-yil 21-dekabrda qabul qilingan “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, ilk bor O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tashkil etildi. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 7-apreldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvinu samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan ushbu vazirlik faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Yoshlar siyosati va sport vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlariga, jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar yaratish, shuningdek, yoshlar va sport sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, unda ishtirok etuvchi davlat organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda mazkur sohalarda qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, sohaga oid kompleks dasturlarni ishlab chiqish hamda yoshlar va sport sohasida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash kabilar kiradi.



Vazirlik, shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash; yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, iqtidorini ro‘yobga chiqarish, ishbarlarni tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarida ham faol ish olib bormog‘da.

Bugungi kunda O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi 1700 ga yaqin nodavlat notijorat tashkilotini birlashtiradi. Ularning 156 tasida 35 yoshgacha bo‘lgan yosh rahbarlar faoliyat olib bormog‘da.

Mamlakatimizdagi yoshlar masalalari bilan bevosita shug‘ullanadigan nodavlat notijorat tashkilotlari orasida O‘zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash markazi, Respublika yoshlar markazi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, “Tafakkur” yoshlar targ‘ibot markazi, “Meros” hunarmand yoshlar va bolalar jamoat birlashmasi, “To‘maris” ayollar va yoshlar markazi, “Faol hayot” ayollar va yoshlar nodavlat notijorat tashkiloti, “Ayol va shodlik” ayollar va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish markazini alohida qayd etish mumkin.

Shu bilan birga, O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi xorijdagi yoshlarimizning muammolari va intilishlarini tegishli tashkilotlar bilan birgalikda umumlashtirish va tahlil qilish hamda chet elda o‘qish yoki ishlashni rejalashtirayotgan yoshlarimiz uchun o‘quv qo‘llanmalari tayyorlash yo‘nalishidagi amaliy ishlar bilan mashg‘ul. Hozirgi vaqtda assotsiatsiya vakillari o‘z faoliyatini Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya, Misr, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Rossiya, Belarus, Latviya, Qozog‘iston va Ukrainada amalga oshirmog‘da.

O‘zbekiston Prezidenti tashabbuslari



bilan yoshlar huquqlari mavzusida bir qator xalqaro anjumanlar ham o‘tkazildi. Xususan, davlatimiz rahbarining BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessiyasida ilgari surgan tashabbusi asosida 2021-yil

12-13-avgust kunlari Toshkentda “Global harakatlarga yoshlarni jalb qilish” mavzusida bo‘lib o‘tgan Yoshlar huquqlari bo‘yicha butunjahon konferensiyasi shu-lar sirasiga kiradi. Xalqaro anjuman yakunida qabul qilingan Toshkent Yoshlar deklaratsiyasida, jumladan, O‘zbekistonning

12-13-avgust kunlari Toshkentda “Global harakatlarga yoshlarni jalb qilish” mavzusida bo‘lib o‘tgan Yoshlar huquqlari bo‘yicha butunjahon konferensiyasi shu-lar sirasiga kiradi. Xalqaro anjuman yakunida qabul qilingan Toshkent Yoshlar deklaratsiyasida, jumladan, O‘zbekistonning

“

“Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari” mavzusidagi xalqaro forumda yakuniy hujjat — Toshkent deklaratsiyasi ishlab chiqilishi rejalashtirilmoqda. Unda forumning asosiy natijalari va amaliy tavsiyalari mujassam bo‘ladiki, o‘z navbatida, bunday muhim hujjat istiqbolda yoshlar huquqlari sohasidagi yangi sa‘y-harakatlar va ilg‘or tashabbuslar uchun mustahkam tag zamin vastafasini o‘tashiga ishonchimiz komil.

3 ta xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi. Bu o‘rinda, birinchidan, **Yoshlar huquqlari bo‘yicha konvensiyani** qabul qilish, ikkinchidan, **Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari Yoshlar kengashini** tashkil etish, uchinchidan, **Markaziy Osiyo yoshlari**

rivojlanish va inson huquqlari” deb nomlangan Samarqand forumi o‘tkazildi. Ushbu xalqaro anjuman yakunida qabul qilingan “Yoshlar — 2020: global birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari” nomli Samarqand rezolyutsiyasida yoshlar tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta‘minlash hamda inson huquqlarini himoya qilish borasida muhim o‘rin tutishi, binobarin, navqiron avlod vakillarining o‘zlariga daxldor qarorlar qabul qilinishi jarayonlarida faol, mazmunli va inkluziv tarzda ishtirok etishi zarurligi alohida ta‘kidlandi.

Bundan tashqari, 2019-yil 7-8-oktabr kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiyasining 6-seminari “Tinchliksevar, demokratik jamiyatlar barpo etish va barqaror rivojlanish yo‘lida yoshlar huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilishning ahamiyati” mavzusiga bag‘ishlandi. Seminar ishtirokchilari qabul qilgan yakunlovchi hujjat — **IHT a‘zo mamlakatlarida yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Toshkent deklaratsiyasida** xalqaro darajada va IHTga a‘zo mamlakatlar tomonidan yoshlar huquqlarini to‘la ta‘minlash yo‘lida amalga oshiriladigan muhim tashabbuslar bayon etilgan.

Yanada muhimi, Prezidentimizning 2023-yil 11-sentabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida 5 ta ustuvor yo‘nalish doirasida jami 100 ta maqsadga erishish ko‘zda tutilganidan xabardorsiz. Xususan, har bir insonga salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan birinchi ustuvor yo‘nalish tarkibiga 44 ta maqsad kiradi.

Bunda ta‘lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya, yoshlar siyosati, ma‘naviyat masalalariga taalluqli 156 ta amaliy chora-tadbir va 70 ta vazifa qamrab olingan. Jumladan, “Top-500”ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta‘lim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy etish rejalashtirilmoqda.

Strategiyada insonning ta‘lim olishga doir konstitutsiyaviy huquqlari yanada ta‘minlashga xizmat qiladigan bunday aniq maqsad-vazifalar anchagina. Bundan tashqari, strategiya doirasida ilm-fan va innovatsiyalar sohasi, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, yoshlarga oid davlat siyosati va sportni ommalashtirish, ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha amalga oshiriladigan barcha islohotlarda inson, insonning qadri, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro anjuman maqsadlari va kutilayotgan natijalar

— Toshkent xalqaro forumi tashkilotchilari va ishtirokchilari kimlar?

— Xalqaro anjumannin o‘tkazishda O‘zbekiston hukumati nomidan ish ko‘rish vakolati Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markaziga berilgan. Shuningdek, mamlakatimizdagi barcha yoshlar tashkilotlari anjuman ishiga faol jalb etiladi.

Xalqaro hamkorlarimiz safi ham keng. Toshkent xalqaro forumini tashkil etishda, xususan, BMT Inson huquqlari bo‘yicha oliy komissari Boshqarmasi, uning Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy bo‘limi, mamlakatimizdagi BMT oilasi, YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi, YXHning O‘zbekistondagi Loyihalari muvofiqlashtiruvchisi, Yevropa Kengashi, F.Ebert fondi (Germaniya) va boshqa xalqaro sheriklar bilan yaqin hamkorlikda ish olib boryapmiz.

Markaziy Osiyo yoshlari Toshkent xalqaro forumida faol qatnashadi. Toshkent xalqaro forumida Markaziy Osiyo davlatlari yoshlarining ishtirok etishi — ushbu jahon anjumanining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz Markaziy Osiyoga daxldor barcha tashabbuslarida mintaqamiz yoshlariga doimo e‘tibor berib kelmog‘da.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti shu yil 14-sentabr kuni Dushanbe shahrida o‘tkazilgan Markaziy Osiyo

yuz.uz_news

“

Prezidentimizning 2023-yil 11-sentabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida 5 ta ustuvor yo‘nalish doirasida jami 100 ta maqsadga erishish ko‘zda tutilganidan xabardorsiz. Xususan, har bir insonga salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan birinchi ustuvor yo‘nalish tarkibiga 44 ta maqsad kiradi.

davlatlari rahbarlarining beshinchi Maslahat uchrashuvida ham Markaziy Osiyo davlatlarining yoshlarga oid siyosatiga alohida e‘tibor qaratdi. Davlatimiz rahbari yoshlarning bilim va malakasini rivojlantirish bo‘yicha sa‘y-harakatlarini birlashtirish, ularni yetuk malakali kadrlar qilib tayyorlash va bandleligini ta‘minlash maqsadida shu yo‘nalishdagi xalqaro tashkilotlar ishtirokida **Markaziy Osiyo yoshlari imkoniyatlarini kengaytirish va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish markazini** tashkil qilishni taklif etdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Dushanbeda bo‘lib o‘tgan Maslahat uchrashuvi yakunida mintaqaviy yoshlarni manfaatlarini ta‘minlash yo‘lida yana bir muhim amaliy qadam qo‘yildi. Ya‘ni **Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iz Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida yoshlarga oid siyosatning umumiy yo‘nalishlari to‘g‘risida** bitim imzolandi.

Forumda milliy va xorijiy ekspertlar, yoshlar tashkilotlari yetakchilari, yoshlar parlamentlari, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, yoshlar huquqlari bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar vakillari — mingga yaqin ishtirokchi qatnashishi kutilmoqda.

Bo‘lajak forum uning ishtirokchilari uchun zaruriy bilimlarga ega bo‘lish, o‘zaro tajriba almashish, dolzarb g‘oya va loyihalarni ro‘yobga chiqarish uchun qulay axborot-ma‘rifat va amaliy muhokama-munozara maydoniga aylanadi, degan umiddamiz. Bunda xalqaro anjuman ishi davomida siyosatchilar va jamoat arboblari, ilmiy-akademik doiralarni namoyandalari hamda tadbirkorlar o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan jonli muqolotlar muhim ahamiyat kasb etishi tayin.

“Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari” mavzusida xalqaro forumning asosiy maqsadi:

- yoshlar huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish uchun xalqaro hamda mintaqaviy vosita va mexanizmlarning qo‘llanilishi sohasini xolis tahlildan o‘tkazish;
- yoshlar huquqlari va imkoniyatlarini himoya qilish mexanizmlari samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘zaro fikr almashish;
- yoshlar huquqlarini himoya qilish muhimligi borasida jamiyatning xabardorligi va tushunchasini oshirish;
- yoshlar huquqlarini himoya qilishning eng maqbul amaliyoti va samarador mexanizmlarni muhokama qilish hamda bu yo‘nalishdagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish;
- yoshlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan siyosat va qonunchilikni targ‘ib etish hamda qo‘llab-quvvatlash;
- davlatlar, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati va yoshlar tashkilotlari o‘rtasida yoshlar huquqlarini himoya qilish sohasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashga ko‘maklashish;

- yoshlarni ularning huquqlari va manfaatlarini bilan bog‘liq qarorlar qabul qilish va rejalashtirish jarayonlariga jalb etish;
- yoshlarning teng imkoniyatlarini ta‘minlash, salohiyatini o‘stirish va hayotini farovonlashtirishga qaratilgan dastur hamda loyihalar amalga oshirilishi va rivojlantirilishini rag‘batlantirish;
- kelgusida yoshlar huquqlari sohasidagi amaliy ishlar va siyosiy tashabbuslar uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladigan qarorlar va tavsiyalarni ishlab chiqish;
- yoshlar hayotiga daxldor qarorlarni qabul qilish jarayonlarida imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan yoshlar huquqlari, gender tenglik, keng ko‘lamli ishtirok va munosib ulush qo‘shilishini ta‘minlashdan iborat.

Shu asosda “Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari” mavzusidagi xalqaro forumda yakuniy hujjat — Toshkent deklaratsiyasi ishlab chiqilishi rejalashtirilmoqda. Unda forumning asosiy natijalari va amaliy tavsiyalari mujassam bo‘ladiki, o‘z navbatida, bunday muhim hujjat istiqbolda yoshlar huquqlari sohasidagi yangi sa‘y-harakatlar va ilg‘or tashabbuslar uchun mustahkam tag zamin vastafasini o‘tashiga ishonchimiz komil. Chunki ulug‘ nemis faylasufi Gyote ta‘biri bilan aytganda, “Garchi butun dunyo olg‘a harakat qilayotgan bo‘lsin ham, yoshlar bu jarayonni har safar yangidan boshlashi kerak”.

G‘ulom MIRZO suhbatlashdi.



Boshlanishi 1-betda

— So‘z bilan ishlash juda mashhaqqatli, shu bilan birga, o‘ta mas’uliyatli ish. Lekin bunda shunday bir maroq borki, har qanday mashhaqqatni tengsiz zavqqa aylantiradi. Qalin-qalin lug‘at kitoblarni varaqlaganingizda, “Devonu lug‘otit turk”ning ko‘hna so‘zlaridan ilhomlanganingizda, ustoz adiblarning noyob asarlarini mutolaa qilganingizda qanday tuyg‘ularni ko‘ngildan o‘tkazasiz?

— Taniqli shoir Eshqobil Shukur ta’kidlaganidek, qo‘lida qalami bor har bir ijodkor, har bir ziyoli ona tili uchun muhabbat bilan xizmat qilishni, ijodiy kurashishni o‘z burchi deb bilishi kerak. Bu burch bugungi globallashuv zamonida Gippokrat qasamida ahamiyat kasb etib borayotgani rost. Qalam yukini zimmasiga olayotgan har bir ijodkor o‘z tilining taqdirini zimmasiga olayotganday mas’uliyatni his etishi kerak bo‘lyapti. Bitta so‘z, bittagina ibora himoyasida ham mustahkam turishimiz zarur.

Ayni paytda yurtimizda davlat tilining ijtimoiy ahamiyatini oshirish, uni doimiy rivojlantirib borish, o‘zbek tilidan ham ona tili, ham davlat tili sifatida foydalanish doirasini kengaytirishdek muammolar kundan-kun dolzarblashmoqda. Ushbu lisoniy dolzarbliklarni qondirishda milliy lug‘atchiligimizning rivoji muhim. Lug‘atchilik tilshunoslikning amaliy ahamiyatli katta tarmog‘i sifatida o‘zida muayyan millatning muayyan davrdaagi madaniyatini bor bo‘y-basti bilan jam qiladi. O‘zbek tilshunosligining 30 yildan ortiq taraqqiyot davrida milliy leksikografiyamiz ham son va sifat jihatidan barkamollashdi. Buning dastlabki natijasi sifatida O‘zbekiston Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida 2022-yilda O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida 6 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” tuzilishi va nashr etilishi katta voqea bo‘ldi. Unda 5 jildli izohli lug‘at materiallaridan foydalanilgan bo‘lsa-da, u shu lug‘atning shunchaki to‘ldirilgan yoki qandaydir o‘zgartirishlar kiritilgan nashri emas, balki leksikografiya yutuqlarini hisobga olib tuzilgan yangi lug‘atdir.

Unda o‘zbek tili leksikasida so‘nggi yillarda yuz bergan o‘zgarishlar, ma’naviy ishlashlar e’tiborga olingan. Davr mafkurasi sabab so‘zlarga, ularning ma’nolariga sun’iy singdirilgan ta’sirlar olib tashlangan hamda haqiqiy izohini olgan. Lug‘at mualliflari to‘g‘ri qayd etganidek, avvalgi nashrda “eskirgan”, “diniy” kabi belgilar ostida berilgan yoki umuman berilmagan tarixiy, etnografik, diniy terminlarga shu so‘zlarning semantikasidan kelib chiqib yondashilgan, mustaqillik sharofati bilan qayta fashlashgan so‘zlar jalb qilingan. Xullas, mazkur leksikografik ish “hozirgi o‘zbek adabiy tilining so‘z boyligini to‘plash va tavsiflash bilan birga, uning me’yorlarini belgilash va barqarorlashtirish”dek vazifalarni bajargan.

— Imlo nafaqat to‘g‘ri yozish qonun-qoidalarini belgilaydi, balki millatni, xalqni birlashtirishdek ijtimoiy-siyosiy vazifani ham bajaradi. Eng dastlabki imlo lug‘atlari so‘zlari cheklangani nashr-matbaa ishlarida, ta’limning yuqori bosqichlarida qator muammolarni, masalan, zikr etilgan lug‘atlarga kirmagan va o‘zbek tiliga keyinroq kirib kelgan so‘zlarning qanday yozilishiga

Bugungi ayrim o‘zbek shevalarida barmoqlarning yana boshqa nomlari bor. Masalan, Samarqandning Jo‘sh aholi punktida o‘rta barmoq vortan terak deyiladi. Bu qo‘ng‘irot urug‘laridagi ortan terak deb nomlanishiga yaqin. O‘zbek adabiy tili tarixida ko‘rsatkich barmoq shahodat barmoq atalgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham shahodat barmoq so‘zi qayd qilingan va quyidagi dalillovchi misollar berilgan: “Feruza pishillab, unga shahodat barmog‘ini o‘qtaldi” (Sa’dulla Siyoyev, “Yorug‘lik”). “Berdiboy shahodat barmog‘ini bigiz qilib, yuqoriga ko‘tardi” (Zulfiya Qurolboy qizi, “Qadimiy qo‘shiq”).

oid ikkilanishlarni, imloda ochilmay qolgan qoidalar bilan bog‘liq zo‘riqishlarni keltirib chiqardi...

— Savodxonlik masalasini oshirish va imlo borasidagi ishlarni mustazam takomillashtirib borish maqsadida hukumatning bir necha hujjatida o‘zbek tilining tovushlar tizimi va uni hisobga olgan holda nutq tovushlari yozuvda aks etishi, joriy imlo qoidalarini takomillashtirishga qaratilgan hamda ilmiy asoslangan takliflarni tayyorlash, ishlash chiqish lozimligi belgilangan. Istiqol yillarida shu maqsadga yo‘naltirilgan imlo lug‘atlari Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, T.Tog‘ayev tomonidan tuzildi. Ular lotin yozuvini o‘rganishda yoshidan qat’iy nazar, barchaning imlo savodxonligini oshirishda muhim rol o‘ynadi. Ammo, ta’kidlaganingizdek, ular so‘zligining cheklangani turli muammolarni keltirib chiqardi.



Ana shunday amaliy ehtiyojlarni qondirish maqsadida joriy yilda O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida lug‘atchiligidagi eng katta imlo lug‘ati (90 000 ga yaqin so‘z va so‘z shakli) tuzilib, lotin yozuvida nashr etildi. Ushbu lug‘at o‘zbek tilining hozirda mavjud imlo lug‘atlaridan imlosi qiyin va munozarali bo‘lgan, hozirga qadar imlo lug‘atlariga kiritilmay kelayotgan so‘zlarni ham qamrab olgani, nashr etilgan va etilayotgan boshqa tip lug‘atlar (izohli, ensiklopedik, terminologik va boshqalar)ning ijobiy imloviy tajribalarini hisobga olgani bilan e’tiborga molikdir. Shuningdek, mazkur lug‘at keyingi o‘ttiz yildan ortiq vaqt davomida o‘zbek tili imlosi amaliyotida yuz bergan, ko‘pchilik tomonidan ma’qul deb topilayotgan ijobiy imloviy o‘zgarishlarga e’tibor bergani, mustaqillik davrida o‘zbek tiliga kirib kelgan yangi so‘z va terminlar yozilish shaklining ilmiy-imloviy baholangan holda kiritilgani bilan farqlanadi. Ayni imlo lug‘atidagi yana bir muhim jihat shuki, rus tili orqali kirib kelgan va tarkibida yo, yu, ya harflari bo‘lgan ruscha va baynalmilal so‘zlarni yangi imloda barcha o‘rinlarda bir xil, ya’ni yo, yu, ya harflari bilan yozishni ko‘zda tutgan va shu orqali bunday so‘zlarni yozishdagi har xillik bartaraf etilgan.



— Etimologiya tilshunoslikning eng murakkab, eng diqqatlab sohasi ekani filolog-mutaxassislarga sir emas. Etimologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi ham so‘zning “chin, asl mohiyat”ini o‘rganishdir. Shu o‘rinda turkiy tillarning umumiy leksik fondiga oid etimologik lug‘atlarining yaratilish tarixiga bir nazar tashlab o‘tsak...

— Turkiy tillarning umumiy lug‘at fondiga oid zamonaviy etimologik lug‘at o‘tgan asrning 70-yillarida turkologlar tomonidan tuzilgan. Sh.Rahmatullayevning o‘zbek lug‘atchiligida dastlabki tajriba sifatida tuzilgan uch jildli “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da tilimizning turli davrlariga oid turkiy, forsiy va arabiy so‘zlarning kelib chiqish tarixi izohlangan. Sh.Rahmatullayev

asarlar lug‘ati”ni tuzgan edi. “Navoiy tili lug‘ati” avvalgi Navoiy asarlari lug‘atlaridan so‘zligining ko‘pligi, leksikografik izohlarining aniqligi, eski o‘zbek alifbosidagi so‘z shakli va transkripsiyasi berilgani bilan farqlanadi. “Navoiy tili lug‘ati” to‘la nashr etilganidan so‘ng undan nafaqat Navoiy ijodi, balki eski o‘zbek tilida ijod qilgan boshqa ijodkorlar asarlari tilini o‘rganishda ham foydalanish mumkin bo‘ladi.

Bu davrda Bobur ijodini o‘rganishga, shoir asarlarining lug‘atini tuzishga astoydil kirishildi. Chunki Bobur sarmazmun, ayni paytda murakkab hayoti va faoliyatida beqiyos tarixiy va ijodiy meros qoldirgan shaxsdir. Fathiddin Is’hoqovning “Boburnoma” uchun qisqacha lug‘at’i, mualliflar jamoasining “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi” alloma shaxsiyati va ijodiyotini anglash yo‘lidagi eng yaxshi yumushlardandir.

— O‘zbekiston Prezidenti 2021-yilda saylovoldi uchrashuvlari doirasida Namangan viloyati ahli bilan muloqotida “Namanganning mevalari shirin, mevalaridan ham shevalari shirin”, deya takalluf qilgan edi. Chindan ham yurtimiz shevalarining ko‘nglimizga baxsh etadigan zavqi va ma’naviy toti o‘zgacha shirin... Bu so‘zlarning mohiyatiga nazar tashlasak, o‘tmishdagi ajdodlarimiz nafasidan bir ulgi olgandek bo‘lamiz. Shunday emasmi?

— Juda to‘g‘ri aytasiz. Milliy tilimizning boy imkoniyatlarini saqlab qolish uchun sheva so‘zlarini doimiy yig‘ish, o‘rganish, til sezgisini tarbiyalash uchun ulardan yurt-doshlarimizni xabardor qilib borish taqozo etiladi. Farg‘onaliklar paqir deb ataydigan buyumni toshkentliklar chelak, boshqa qip-



choq shevalari vakillari satil deydi, ammo adabiy tilda Toshkent shevasidagisi olingan. Yoki toshkentliklar kalavat deyidigan narsaga farg‘onaliklar so‘ri deb ot qo‘ygan va bu adabiy me’yor bo‘lgan.

O‘zbek tili uch lahjadan kuch olib rivojlanadigan til sifatida boy ifoda imkoniyatlariga ega. Tabiiyki, mazkur lahja va shevalardagi so‘zlarni to‘plash bilan boy lug‘aviy za-

xira jamlanadi, erta-indin unutilishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni kitoblarda saqlab qolishga erishiladi. O‘z navbatida, shevalar fondi etimologik lug‘atlar uchun ham muhim manba hisoblanadi, etimologik lug‘atlarning mukammallashuvini ta’minlaydi. Chunki til tarixiga oid faktlar davr o‘tishi bilan adabiy leksikadan o‘chsa ham sheva so‘zlarida saqlanadi. Mustaqillik yillarida dissertatsiyalarga shevalar so‘zliklari ilova qilinishi alohida hodisa bo‘ldi va buning natijasida salmoqli miqdordagi so‘zlar yig‘ildi. To‘ra Nafasovning “Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari”, Bosim To‘ychiboyev va Qozog‘boy Qashqirining “Zominning til qomusi” lug‘atlarida ham qamrov obyektiga oid katta material qamrab olingan. Yoki Ma’rufjon Yo‘ldoshevning “Buvayda shevasidan ixcham lug‘at” buvaydaliklarning lug‘aviy xazirasi haqidagina emas, balki olamni ko‘rish tarzidan ham hikoya qiladi. Bu lug‘atlarda adabiy tilda muqobil bo‘lmagan so‘zlar o‘ziga xos orfoepik libosda namoyon bo‘lgan, ularni o‘qib, ustoz tilshunoslarimiz ta’kidlaganidek, xalqimiz shunchaki gapirganda ham qanchalik obrazli gapirishiga qoyil qolasiz. Kelgusida esa ayni manbalarda asosida bir necha jildli o‘zbek shevalari lug‘ati tuzilishi zarur.

Yaqinda ziyolilar davrasida shevalar borasida ajoyib bahs-munozara yuzaga keldi. Mazkur munozara sabab bo‘lib, inson qo‘lidagi barmoqlarning shevalarda qanday atalishini o‘rganib chiqdim. Aksar shevalarda boshmaldoq, ko‘rsatkich barmoq, o‘rta qo‘l, nomsiz barmoq, jimjiloq so‘zlari qo‘llanadi. Adabiy tilga ham shu so‘zlar olingan. Xalq qo‘l barmoqlariga nom berishda ularning shakli, xususiyati, vazifasini hisobga olgan. Masalan, bosh barmoq deyilishining asosiy omili birinchi barmoq ekani, barmoqlarning boshida kelishdir. Biror shaxs, narsa-buyum, o‘rin-joyini ko‘rsatishga xizmat qilgani, umuman, nimagadir ishora qilgani uchun ko‘rsatkich barmoq atalgan. Panjaning o‘rtasida o‘mashgani sababli o‘rta qo‘l, o‘rta barmoq deb nomlangan. To‘rtinchi barmoqning nifaolligi, asosan, boshqa barmoqlar bilangina vazifa bajargani uchun bo‘lsa kerak, o‘tsiz qolgan. Qizig‘i shundaki, ismsizligi o‘ziga nom o‘laroq taqilgan. Ha, to‘g‘ri ilg‘adingiz, bu nomsiz barmoq yoki o‘tsiz barmoq. So‘nggi barmoqning jimjiloq, sinchaloq deyilishiga kichikligi bois bo‘lgan.

Xalqimiz bu bilan chegaralanib qolmagan. Qo‘l barmoqlarining katta-kichikligi, bajaradigan vazifasi hamda xususiyatidan kelib chiqib, adabiy tildagidan farqli nomlarni qo‘ygan. Bu nomlar orqali ayni a’zolarga munosabatini bildirgan. O‘zbekistonning aksar hududlarida kishilar eng kamida bittasiga, bo‘lmasa, ikki-uchtagiga o‘zicha ot qo‘ygan, bu nomlar haqida qo‘shiqlar to‘qigan. To‘ra Sulaymon bu haqda quyidagilarni yozadi: “Tomlarni qor bosib, eruv boshlangandan so‘ng tomlning

— Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumanidagi qishloqlarda katta yoshli kishilar bolalarga barmoqlar nomini qo‘fiyali qilib o‘rgatganini eslayman: boshmaldoq, barabaldoq, o‘rta qo‘l, chuldur chumak, chinachoch...

— Men ham xuddi shu tuman qishloqlaridagi shevalarga e’tibor qaratdim. Diqqat qilinsa, uch barmoqning nomi adabiy tildagidan farqli: barabaldoq — ko‘rsatkich barmoq, chuldur-chumak — nomsiz barmoq, chinachoch — jimjiloq.

Qoraqalpog‘istondagi qo‘ng‘irot urug‘lari ham qo‘l barmoqlarini shunga o‘xshash ataydi: bas barmoq — bosh barmoq, balan uyrek — ko‘rsatkich barmoq, ortan terek — o‘rta barmoq, shuldur shumek — nomsiz barmoq, kishkene bebek — jimjiloq. Ko‘rinadiki, ularning xalq tilida nomlanishi o‘xshash. Chinachoch, chiychanaq, kishkene bebek atalishida ham jimjiloqning kichkinaligi hisobga olingan. Kishkene bebek — kichkina chaqaloq demak.

Qozoq bovuilarimiz ham qo‘ng‘irotlardek ataydilar: bacbarmaq — bosh barmoq, balaq yyrek — yosh o‘rdak, ortaʻ terek — o‘rta terak, shildir shyemk — shildir (bolalar o‘yinchog‘i), tittay bebek — kichkina chaqaloq.

Buxoroning ayrim tumanlarida bosh barmoq, bodom barmoq, o‘rta terak, hoji malak, jimjimaloq deb atash uchraydi. Bunda barmoqlarning boshlang‘ichi ekani sababli bosh barmoq deyilgan, ko‘rsatkich barmoqning uch bodom uchiga o‘xshagani sababli bodom barmoq, barchasidan uzunligi uchun o‘rta terak atalgan (yaxshi o‘xshatish, ayniqsa, terak deyish bilan uzunligi aniqlashgan), boshqa barmoqlarga qaraganda kam ishlalgani uchun bo‘lsa kerak, hoji malak deb erkalangan, kichikligini bo‘rttirish uchunmi, jimjiloq deyish bilan cheklanmay, jimjimaloq atalgan.

Bugungi ayrim o‘zbek shevalarida barmoqlarning yana boshqa nomlari bor. Masalan, Samarqandning Jo‘sh aholi punktida o‘rta barmoq vortan terak deyiladi. Bu qo‘ng‘irot urug‘laridagi ortan terak deb nomlanishiga yaqin. O‘zbek adabiy tili tarixida o‘rsatkich barmoq shahodat barmoq atalgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham shahodat barmoq so‘zi qayd qilingan va quyidagi dalillovchi misollar berilgan: “Feruza pishillab, unga shahodat barmog‘ini o‘qtaldi” (Sa’dulla Siyoyev, “Yorug‘lik”). “Berdiboy shahodat barmog‘ini bigiz qilib, yuqoriga ko‘tardi” (Zulfiya Qurolboy qizi, “Qadimiy qo‘shiq”).

Adabiy tilda nomsiz barmoq deyiladigan barmoqni mingbuloqliklar jonsiz barmoq deydi. Jonsiz barmoq deyilishining boisi shuki, bu barmoqning yakka o‘zini boshqa barmoqlar singari erkin ishlash qiyinroq, harakati chegaralangan. Andijonliklar uni o‘zgarmas barmoq deb o‘rgangan. Yangilarqliklar adabiy tilga yaqinroq qilib, o‘tsiz barmoq deb qo‘ya qoladilar. Bu barmoqqa uzuk taqilgani sababli uzuk barmoq ham deyiladi.

Qadimgi misrliklar bu barmoqda yurak bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa bor, bu barmoqdan yurakka tomon sevgi tomiri o‘tgan deb hisoblagani sababli nikoh uzugini nomsiz barmoqqa taqish odat bo‘lgan. Bora-bora urfga kirgan. Bu odadni yozuvchi Nusrat Rahmat “Noma’lum odam hikoyasi”da bunday tasvir etgan: “ZAGS payti uzuk taqay desam, kelinning barmog‘i yo‘q. Jonim chiqib ketdi — uzukni yerga otib tashlab, bu yoqqa yo‘l olganman. Keyin bilsam, qiz bir paytlar bosmaxonada ishlagan va chimchaloq’i bilan nomsiz barmog‘ini qog‘oz kesadigan apparat olib ketgan ekan”.

Qipchoq shevalarida jimjiloqning bo‘bak, Namangandagi ayrim shevalarda ilikcha, Buxoroda ilichga, Farg‘onada chiychanaq, Jizzaxda chinaqay, boshqa shevalarda sinchaloq, chimchiloq degan nomlari bor.

Barmoqlar nomi xalq tilida keng tarqalgani uchun badiiy asarlarga ham ko‘chgan: “Onam ham yolg‘ondakam kuladi: Ukangdi bilasan-ku?.. Shuning boriga shukr. Urpoqdan bo‘lgan deb, Uyg‘ildiy boshmaldoq’ini ema ketdi. Tavba... Momong rahmatli sindiribgina qo‘ydi. Ana, ikki chinachog‘iyam qiyshiq pitib qolgan” (Shukur Xolmirzayev, “Yozuvchi”). “Birdariga tilla uzukni o‘zi ko‘zi oldiga olib bordi, u yiq-bu yig‘ini aylantirib, xo‘p qaragandan keyin sekingina qo‘l uzatib, uni Umrinisabibining sinchalag‘i kizgizib qo‘ydi” (Cho‘lpon, “Kecha va kunduz”).

— Bizga taqdim etgan yangi topilmalaringiz va kuzatuvlaringiz uchun rahmat. Tilimiz sinoatlarni kashf etishdagi izlanishlaringiz davomli va yanada samarali bo‘lishini tilaymiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Muxtasar TOJIMAMATOVA suhbatlashdi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-1046. 43312 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. O‘set usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Feruza Jo‘rayeva Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05